

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'l yozma huquqida

UDK: 152.823.8

PARMONOV BOBUR ERKINOVICH

**O'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi
jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning
ijtimoiy psixologik omillari**

5A 110902 - "PSIXOLOGIYA"

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
p.f.n. Suleymanova T.G.**

U N D A R I J A

	Kirish	5-bet
I BOB	O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish bozor iqtisodiyoti sharoitida psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida	11-bet
1.	O'smirlarda tadbirkor shaxsi xususiyatlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik omillari	11-bet
2.	O'smirlardagi kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	22-bet
3.	O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda oilaning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari	32-bet
4.	Oilaviy tadbirkorlik jarayonidagi nizoli vaziyatlar va ularni hal etishning ijtimoiy psixologik usul va vositalari	38-bet
	1-bob bo'yicha xulosalar	42-bet
II BOB	Amaliyotchi psixolog faoliyatida o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining mazmun va mohiyati	43-bet
1.	Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning shakl va metodlari	43-bet
2.	Qiziqtirish- tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish jarayonida muxim psixologik xususiyat sifatida	50-bet
	2-bob bo'yicha xulosalar	58-bet
III-BOB	O'smirlarda tadbirkorlik faoliyatini muvoffaqiyatli yuritish uchun kerakli shaxs psixologik tuzilmalarini shakllantirishning psixologik diagnostikasi va psixologik korreksiyasi	59-bet
1.	O'smirlar kasbiy tayyorgarligi jarayonidagi tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish xususiyatlari	59-bet
2.	Tadbirkorlik shaxs xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tajriba sinov ishlarining natijasi	63-bet
	3-bob bo'yicha xulosa	72-bet
	Xulosa	73-bet
	Tavsiya	74-bet
	Foydalangan adabiyotlar	75-bet
	Ilova	78-bet

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: Barkamol avlod ta'lim - tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri - har qanday jamiyatning zamonaviy taraqqiyot darajasi hamda uning kelajagini belgilovchi o'z ichki imkoniyatlari, ijodiy tashabbuskorlik salohiyati bilan o'zligini namoyon qila bilgan, jamiyat tomonidan qabul qilinishi va tan olinishida o'z -o'zini isbotlay olgan, o'z taqdirining haqiqiy sub'ekti bo'la olgan izlanuvchanlik hamda yaratuvchanlik qobiliyatiga ega insonlarni kamol toptirishdir. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi muassasalarida psixologik xizmat to'g'risidagi Nizomda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2010 yil 7 iyundagi 109-sonli "Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitaruvchilarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qitish bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida"ti qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 yil, 23-son, 184-modda) ga muvofiq kasbiy tayyorgarlik masalalari alohida ahamiyat kasb etib kelmokda. [1,2,4].

Respublikamizda tadbirkorlik, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'zining bunyodkorlik, yaratuvchanlik, islohotchilik qudratini ko'rsatmoqda. SHu jihatdan olib qaralganda yosh avlodni oiladan boshlab ishbilarmon, tashabbuskor, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan, ayniqsa ularda tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Mavjud muammolarni hal etishda oilada jumladan, kasb-hunar kollejlari o'rgatib borish bo'yicha ma'lum bir yo'l-yo'riqlar, maslahatlar berish zarur hisoblanadi.

Tadbirkorlik tashabbusi jamiyat rivojlanishining bosh omilidir. Bu borada Davlat tomonidan fuqarolar imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqishi uchun qulay huquqiy, maydon, qonuniy vositalar va kafolatlar mukammal tizimi izchillik bilan bajarib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da ilgari surilgan g'oya asosida qabul qilingan va 2012 yil aprel oyidan kuchga kirgan "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonun

iqtisodiyotning turli yo'nalishlarida oilaviy biznesni rivojlantirish orqali aholini foydali mehnatga jalb qilish imkoniyatlari yanada kengayishiga xizmat qilmoqda.

21-asr shaxsining asosiy psixologik xususiyatlaridan biri–yangiliklar, innovatsiyalarga tayanib hayotning asosiy mazmun-mohiyati bo'lgan mehnat, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish hisoblanadi. Ushbu ishlab chiqarish zamonida yashayotgan bunyodkor shaxs o'z tadbirkorligida ko'proq kommunikativ, intellektual, ijtimoiy psixologiya va huquqiy imkoniyatlardan foydalanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan kichik mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa kasb-hunar kollejlarida kichik mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va uning psixologik, innovatsion-pedagogik asoslarini ishlab chiqish, zaruratini yuzaga keltiradi.

O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish vazifalari bevosita kasbiy tayyorgarlik jarayonida amalga oshirilib aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Bu jarayondagi muhim omillardan biri kasb-hunar kollejlarining kichik mutaxassislar tayyorlash tizimidagi amaliyotchi psixologlar faoliyatini mavjud tashkiliy-pedagogik, o'quv-metodik va moddiy-texnik sharoitlar bilan uzviyligi asosida amalga oshirilishi tashkil etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy-tarixiy asoslari SHarq mutafakkirlari jumladan, “Ma'mun akademiyasi” deb nomlangan Xorazmdagi ilmiy markazda (IX-XII asrlar) faoliyat ko'rsatgan Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'iloniylar ijodida yoshlarga kasbiy ta'lim - tarbiya berishda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda shaxsning qiziqishlari, jamiyat talablari va irsiy omillar bilan bog'liqligi ilmiy - nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kasbga yo'naltirish, kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik, o'smirlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari pedagog va psixolog olimlari

tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo'lib, ular o'ziga xos yondashuvlarni ilgari suradilar. Jumladan, Ye.S.Kuzmina, S.Ya. Bato'shev, A.A.Bulgakov, B.S.Gershunskiy, A.P.Belyaeva, V.P.Bespalko, N.I.Dumchenko, V.A.Slastenin, N.N.Azizxodjaeva, J.G'.Yo'ldoshev, SH.E.Qurbanov, E.A.Seytxalilovlar o'rgananlar.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda kasbiy tayyorgarlik masalasi turli aspektlar misolida yoritilgan bo'lsada, lekin o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mohiyati yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi g'oyalar, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Yoshlar yili" va "Sog'lom bola yili" Davlat dasturlari shuningdek, Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasining ilmiy - tadqiqot yo'nalishi doirasiga mos keladi.

Tadqiqot maqsadi: O'smirlarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish.

Tadqiqot vazifalari:

- O'smirlar kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy - nazariy tahlili;
- Kasb - hunar kollejlari o'quvchilari kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy psixologik omillarini tahlil qilish;
- O'smirlarning tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda oila - mahalla, ijtimoiy institutlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorligi zaruratini asoslash;

Tadqiqot ob'ekti: O'smirlarning tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish jarayoni hisoblanib, Dissertatsion tadqiqot mobaynida jami 30 nafar (10 - 15 yoshli o'smirlar) va 20 nafar (katta yoshdagi tadbirkorlar o'rganildi. O'smirlarning o'rtacha yoshi 16,5 yoshni, katta yoshdagi tadbirkorlar o'rtacha yoshi 45,2 yoshni tashkil qiladi.

Tadqiqot predmeti: O'smirlar kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy psixologik usul va vositalari.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot mavzusiga oid psixologik adabiyotlar, shuningdek, kasb-hunar kollejlari faoliyatini yorituvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganish, ijtimoiy metodlar (so'rovnoma, "SHaxs rigidlik " testi suhbat, intervyu),kuzatish.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Kasb- hunar kolejlarida kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining samarasi ortadi agarda:

- O'smirlar kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy-nazariy psixologik aspektlari tahlil etilsa;
- Kasb-hunar kollejlari kasbiy tayyorgarligi jarayonida ta'lim tizimidagi tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining imkoniyatlarini asoslab beruvchi o'smir shaxsi psixik xususiyatlari diagnostika qilinsa;
- Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlari mazmunini o'smirlarning yosh va individual xususiyatlari asosida tashkil etilsa;
- Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari ijtimoiy ehtiyojlari qiziqishlari qobiliyat va shaxs xususiyatlarining tadbirkorlik faoliyatini yuritishda psixologik diagnostikasi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilsa;

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. O'smirlarda tadbirkor shaxsi xususiyatlarini shakllantirishning ijtimoiy - psixologik omillarining amaliy va nazariy - metodologik sohalari tahlili jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etishida zaruriyat ekanligini aniqlash imkonini beradi.

2. Tadbirkorning faoliyati, motivatsion xususiyatlari omillari bilan bevosita aloqadadir. Tadbirkor shaxsining hissiy - irodaviy hamda motivatsion xususiyatlari amaliyotchi psixolog va pedagoglar tomonidan o'rganilishi, o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining samarasini oshiradi.

3. O'smirlarni kasb - hunar kollejlarida kasbni to'g'ri tanlash, har bir o'smirning qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini mukammallashtirish imkonini beradi.

4. Amaliyotchi psixologning o'smirlarda mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish xususiyatlarini shakllantirish borasida olib boradigan psixologik korreksion va psixoprofilaktik ishlar markazida o'smirlarda ijodkorlik, mas'uliyatlilik, hisslarini tarkib toptirishni egallaydi.

5. Oilaviy tarbiya va munosabatlar tizimini pedagoglar, amaliyotchi psixologlar tomonidan yaqindan o'rganilishi o'smirlarning tadbirkorlik faoliyatga yo'naltirish ishlarining samaradorligini belgilaydi.

6. Tadbirkorlik faoliyatidagi muammolarni oilaviy munosabatlarda salbiy ta'siri ko'rsatishini oldini olish amaliyotchi psixologning psixoprofilaktik ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy yangiligi: Kasb - hunar kollejlari o'quvchilari kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mazmuni va vazifalarining ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi;

Kasb-hunar kollejlarining kichik mutaxassislar tayyorlash tizimidagi tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining imkoniyatlari va mavjud holat diagnostikasi;

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va katta yoshdagi tadbirkorlik sub'ektlari bilan so'rovnomalar o'tkazilishi va natijalarning qiyosiy tahlilini o'tkazilganligida.

O'quvchilarining tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning metodikasining ishlab chiqilganligi, amaliyotga tatbiq etilganligi;

Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiya ishida "Kasbiy tayyorgarlik" va "Tadbiokorlik faoliyatiga yo'naltirish" tushunchalarining mazmuni, mohiyatiga nisbatan ilmiy - nazariy yondoshuvlar aniqlashtirildi;

Kasb-hunar kollejlarida kichik mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish jarayonining mavjud holati aniqlik kiritilib, amaliy tafsiyalar keltirildi.

Natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi yuzasidan olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar SHahrixon pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji o'quv - tarbiyaviy ishlarini olib borishda, amaliyotchi psixolog faoliyatda foydalanilib kelinmoqda.

Ishning sinovdan o'tishi: Tadqiqotning nazariy g'oyalari va amaliy natijalari Andijon davlat univesiteti psixologiya kafedrasining 22.05.2014 yildagi yig'ilishida ko'rib chiqildi va himoyaga tavsiya etildi.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy mazmuni va amaliy natijalari konferentsiyalarda chop ettirilgan maqola va tezislarda o'z aksini topgan.

1. Andijon davlat universiteti "Falsafa kafedrası". Mustaqillik: Fan va ta'lim taraqqiyoti. Andijon-2013.

2. Andijon davlat universiteti "Milliy istiqlol g'oyasi kafedrası". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan konfurensiyasi Andijon-2014.

3. Andijon davlat universiteti "Pedagogika kafedrası". Andijon-2013.

4. Andijon davlat universiteti "Ilmiy xabarnoma" jurnali maxsus soni. Andijon-2014.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy hulosasi va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyada 2-ta rasm, 8 ta jadval, ilova, 29 ta foydalanilgan adabiyotlar, 6 ta internet saytlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 67 betni tashkil etadi.

I–bob. O’smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo’naltirish-bozor iqtisodiyoti sharoitida psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida.

1.1. O’smirlarda tadbirkor shaxsi xususiyatlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik omillari.

Tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R. Kontilon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit va J.B.Sei asarlarida amalga oshirila boshlandi. Biroq hozirga qadar jamoatchilik fikrida “Tadbirkorlik” tushunchasining ko’p ma’noliligi saqlanib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha haqida ko’pincha bu favqulodda hodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruhiy tavsiflari to’plamidan iborat har xil tasavvurlar mavjud.

Xorijiy adabiyotlarda tadbirkorlik (biznes) ta’rifini ko’p turlari mavjuddir. Inson jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog’liq bo’lgan. Dastlabki bosqichlarda tadbirkorlikning eng muhim alomati biron bir shaxs-tadbirkor faoliyatining foydali yoki zararliligini belgilovchi noaniqlik omili hisoblangan. Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi turli bozorlarda talab bilan taklif orasida muvozanat o’rnatishga doir takomillik faoliyatidan iborat deb tan olingan.

Keyinchalik “Sarmoya egasi” va “Tadbirkor” tushunchalari bir-biridan farqlana boshlandi. Tadbirkor sarmoyaning muomalada yuritishni, ko’payib borishini ta’minlaydi va bu borada u venchur sarmoyador, ya’ni jalb qilingan moliyaviy mablag’larni ustalik bilan tasarruf etuvchi shaxs sifatida ishni yuritib yuborishga o’z g’oyalari, bilimi va ko’nikmalarini tadbiq qilib, ko’p foyda olish maqsadida o’sha mablag’larni tavakkalli ishlarga sarflaydi.

O’zbekistonda va MDHda biznes haqidagi maqolalar, adabiyotlar o’tgan asrning 60-yillarning o’rtalarida paydo bo’ldi.

“Biznes” - so’zi inglizcha so’z bo’lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so’z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan faoliyatidir.

Tadbirkor (biznesmen) so’zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo’lib, u “Mulk egasi” degan ma’noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit

tadbirkorni mulk egasi sifatida ta'riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, - deb ta'kidlaydi. Tadbirkorni o'zi, o'z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadiga o'zi xo'jayinlik qiladi.

Tadbirkorlik (Biznes) - bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonidagi faoliyat va munosabatlar, hayotni o'zi so'ngra esa pul ishlash demakdir. Biznes - bu xorijiy so'zdir. U butun dunyo bo'yicha tarqalgandir, undan barcha mamlakatlarda foydalanadilar. O'zbek tilida esa biznes so'zi tadbirkorlik, biznesmen esa tadbirkor demakdir. O'zbekcha so'z xorijiy so'zga to'g'ri keladi, lekin unga qo'shimcha ma'no ham beradi. Bu so'zlarni ortida "ish" ya'ni ish bilan shug'ullanish yoki korxona tashkil qilish yotadi. SHunday qilib, biznes - bu korxona tashkil qilish demakdir. (sanoat korxonasi, savdo do'koni, xizmat ko'rsatish korxonasi, auditorlik kontorasi, advokat idorasi, bank va x.k.). Demak, tadbirkorlik (biznes) bu yo'q narsadan pul qilish emas, balki murakkab ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish demakdir.

Tadbirkorlik - bu doimo izlanuvchan, o'z ishining fidoiysi, bilimdonidir. Tadbirkorlik uchun o'qish kerak, nafaqat dastlabki paytlarda, balki tadbirkor bir umr o'qishi, izlanishda bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir.

"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat" . [3].

Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi:

Birinchidan, tadbirkorlikning sub'ekti Qonunchilikka muvofiq balog'at yoshiga yetgan har bir fukaro o'z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o'z ihtiyor etgan qonunga zid bo'lmagan faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin.

Ikkinchidan, yuqoridagi ta'rifda tadbirkorlikning yana bir tomoni mazmuni ifoda etilgan bo'lib, u mazmunan boy, xilma xil ko'rinishiga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyat jihatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga molik ish bo'lmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir. [12, 14].

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga mos ravishda tadbirkorlarning 3 guruhini alohida ko'rsatish mumkin: Yangi tovar yoki xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shug'ullanadi.

1) Tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar.

2) tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar. [16, 17,].

Maqsad jihatidan tadbirkorlikning ikki to'rini:

a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qilgan;

b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muhofazasi, yosh avlod tarbiyasi, sog'liqni saqlash) erishishni maqsad qilgan turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to'siqlarni hal qilish yo'llarini va qanday yutuqlarga erishishni bilishi kerak. Tadbirkor - ishlab chiqarishni tashkil etishni hamda mahsulotni sotishni, bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan aniq sharoitlarni baholashni va to'g'ri yo'l tanlashni bilishi kerak. Hech kim, hech qachon tadbirkorga nima qilishni o'rgatmaydi va og'ir paytdlarda yordamga kelmaydi. Har bir tadbirkor faqat o'z kuchiga, bilimiga va zakovatiga ishonishi va suyanishi lozim. [13].

Tadbirkorlikdagi muhim omil bu tadbirkorning shaxsiy xususiyatlaridir. Tadbirkor bo'lishi uchun tashki holatdan tashqari faqat shaxsan o'ziga bog'liqlik

tomonlari borki, sarmoya va huquqiy muhit to'la mavjud bo'lganda ham busiz u haqiqiy tadbirkor bo'la olmaydi. Bu uning ishbilarmonlik, tijorat qobiliyatidir.

Ishbilarmonlik juda keng tushunchaga ega. Bu avvalo, nazariy va amaliy bilimlar yig'indisi bo'lib, bunda birinchi navbatda, iqtisodiyot asosini, aynan bozor iqtisodiyotini bilish zarur. Ma'lumki, iqtisodiyotni tushunmay, bozorning farqiga bormay turib tadbirkor bo'lish mumkin emas. Tadbirkorlar bozor iqtisodiyotining ijodkorlaridir. Chunki ular oddiy ijrochi emas, balki bozor iqtisodiyoti, uning munosabatlari, mexanizmlariga ijobiy yondashuvchilar, rivojlantiruvchilardir, bozor to'g'risidagi tushunchani kengaytiruvchi, uning turliligini ta'minlovchi real holatini boyituvchi shaxslardir.

Bozorni o'z vaqtida sezib borish, uning holatini oldindan ko'ra bilish, bozorning ertangi talab darajasida ish ko'rish har tomonlama bilimdon, sezgir, o'tkir bo'lishni talab etadi. Bu aholi turmush darajasi, daromadlar harakati, turli tabaqadagi aholi talabining o'zgarib borishini oldindan bilish va barcha ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini shu holatga moslashgan holda o'zgarib borish uchun intilish demakdir.

Buning uchun tadbirkor har tomonlama bilimdon bo'lmog'i zarur. SHundagina u mazmunan ishbilarmon bo'lishi mumkin. U zamonaviy texnika, texnologiya, tashkilotchilik, bilimdonlik darajasida bo'lmasa, orqada qoladi, raqobatga bardosh bera olmaydi va bozor ishtirokchisi sifatida yuqori darajaga erisha olmaydi. Tadbirkor ish yuritish sohasida barcha omil, chora-tadbir, voqealikka bir xil munosabatda bo'lib, hammasini o'z diqqat markazida tuta bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Tadbirkor shakllanishiga bir qator omillar ta'sir etadi - ma'lumoti, характери, oilaviy ta'sir, oldingi ish va hayotiy tajribasi, o'z ishiga munosabati, rejalari va h.k.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida yuqori malakali tadbirkorlarga ega bo'lish uchun ma'lum ishlarni amalga oshirish kerak. Bu avvalo mutaxassislar tayyorlash, o'qitish va o'qish jarayonlarni shunga moslashtirish demakdir.

Mamlakatimizda bu sohada juda katta ishlar olib borilmoqda va mutaxassislar tayyorlashda muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Tadbirkor-biznesmenlar tayyorlash

kengaytirilmoqda, yetakchi mamlakatlarda o'qishga minglab yoshlar yuborilmoqda. O'qish, o'qitish, mutaxassislar tayyorlash tizimi bozor talabi asosida qayta ko'rilmoqda.

Tadbirkorga xos xususiyatlardan biri uning madaniyatidir. Tadbirkorlik madaniyatini asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: [16, 20,21,].

- Tadbirkorlik madaniyati – bu madaniyat omillarini hamma yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy tashkil qilish (moddiy va ma'naviy);
- Bu madaniyatning ayrim elementlari rivojlanishi bo'yicha g'oya, maqsad, vazifalarning bir-biriga mos kelishi;
- Tadbirkorning amaldagi qonunchilik doirasida faoliyat yuritishi;
- Tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy, texnikaviy, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayanishi;
- Tadbirkor o'z faoliyatida xodimlarini va hamkorlarini eng qadrli kishilari sifatida qabul qilishi kerak;
- Tadbirkor har doim kelajakka ishonch va umid bilan qolganlarni o'ziga ham ishontira olishi lozim.

Maqsadga erishish uchun tadbirkorga korporativ madaniyatning ahamiyati beqiyosdir. Tadbirkorlik faoliyatida o'z biznesini boshqarish – bu korporativ madaniyatni rivojlantirishdir. Tadbirkorning korporativ madaniyatni boshqarish pog'onalari quyidagichadir:

- 1.Madaniyatning rivojlanish an'analari va holatini tahlil qilish;
- 2.O'rganilayotgan davrda mavjud muammolarni aniqlash;
- 3.Paydo bo'lgan muammolarning obektiv va subektiv omillarini aniqlash;
- 4.Mavjud muammoning yechimini topadigan imkoniyatlar va yo'llarini ko'rsatish;
- 5.Chuqur o'rganilgan va tahlil etilgan mulohazalardan foydalanish. [17,20].

Tadbirkorlik faoliyati natijasi noaniq bo'lgan sharoitlarda ham, muntazam tarzda tezkor qarorlar qabul qilish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan, ishda tashabbuskorlik, yangilikka intilish, tavakkalchilik, mustaqil fikrlash kabi shaxs

xususiyatlari asosida shakllanadi. Ya'ni tadbirkorlik bu iqtisodiy faoliyatning shunday turi-ki u bilan shug'ullanish uchun, shaxs ongida alohida olingan psixologik xususiyatlar mavjud bo'lishi zarur. Tadbirkor bilimli, malakali, ma'naviyatli bo'lib, u doim informatsion jamiyatda o'z aqobatbardoshligini saqlash uchun innovatsiyalarga, yangi g'oya, fikr, tasavvurlarga boy bo'lishi lozim. Eng yangi g'oyalar asosida texnologiya ishlab chiqqan tadbirkorgina bugungi va ertangi kunda samarali mehnat qilib, yangi ashyolar bilan xalqlarni ta'minlashi, yaxshi daromad olishi, hayotni ravnaq topishiga o'z hissasini qo'shishi mumkin.

Mustaqillik, bozor iqtisodiyoti va demokratiya sharoitida tadbirkorlik kategoriyasi butun jahon tadbirkorlik amaliyoti bilan bog'liq. O'z ustida ishlamaydigan, yangi axborotdan orqada qoladigan, yangi bilim, g'oyani tezda ishlab chiqarishga qo'llamaydigan, sifatli, qadriyatli mahsulot ishlab chiqmaydigan tadbirkorni zamon, raqobat, vaqtning o'zi inkor etadi.

Tadbirkor shaxsiy sifatlarining strukturaviy modelini ikki xil sistema ko'rinishida namoyish qilish mumkin. [21]. Birinchi modelda tadbirkorning umumijtimoiy sifatleri keltiriladi. Ikkinchi modelda esa kasb sifatleri yig'indisi keltirilgan. Birinchi model doimo muvaffaqiyatga erishayotganlarning shaxsiy tavsifini ajratib ko'rsatishga yordam beradi, bular:

- doimo imkoniyat kidirish va tashabbuskorlik;
- ko'yilgan maksadlarga erishishda sabr va matonat;
- samaradorlik va sifatga tomon tinmay harakat qilish;
- maksadga karab intilish, aynan, goyalarning doimiy rivojlanib

borishi va qisqa muddatli masalalar yechimini oldindan ko'ra bilish, nafaqat o'z faoliyati sohasida, balki, ko'shni sohalarda ham doimo mijozlar, mol yetkazib beruvchilar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilish, bu maksadlarga shaxsiy va ish yuzasidan qilinadigan aloqalardan, shuningdek chegaralangan va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- tadbirkorlik faoliyatining nafaqat o'z faoliyati sohasini, balki mumkin qadar boshqa sohalarni ham uzluksiz tahlil qilish, kuzatish, rejalash va oldindan ko'ra bilish.

Tadbirkorlar mijozlari bilan aloqa o'rnatishda quyidagilarni bajarishi zarur:

- ishontirish va aloqa bog'lash qobiliyati;
- mustakillik va o'ziga ishonish;
- darov ilg'ab olishlik va avval to'plangan bilimlarni yangi

o'zlashtirilgani bilan bog'lash;

- faoliyatining tanlangan sohasida murakkab ishni shaxsan bajara olishlikga tayyor bo'lishlik. [23,34].

SHunday kilib, tadbirkor bo'lishga axd qilgan o'smir, o'zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, shu jumladan o'z izlanuvchilik qobiliyati haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik - bu ishni chuqur bilish, kundalik tinimsiz mehnat, bir me'yordagi iqtisodiy sharoitdagi yuz beradigan doimiy raqobat, unga faqat o'z kasbini yaxshi egallagan, irodali, insonlarga olib borishlari mumkin.

Tadbirkorning umumijtimoiy sifatlariga: ma'naviy sifatlar, ijtimoiy, ruhiy va tabiiy-genetik sifatlar kiradi.

Ma'naviy sifatlar - bu tadbirkorlik faoliyatida zarur bo'lgan sifatlardan bo'lib, unga tadbirkorning dunyoqarashi, tarbiyasi, e'tiqodi kabilar kiradi.

Ijtimoiy psixologik sifatlar - bu tadbirkorning jamiyatga foydali bo'lishini ta'minlovchi, unga tabiat tomonidan berilgan sifatlardir.

Tadbirkorning kasbiy sifatlariga quyidagilar kiradi: o'z kasbini mukammal egallash, intellektual-irodaviy, tashkilotchilik sifatleri. Intellektual irodaviy sifatlar - bu tadbirkorning mustaqil fikrga ega bo'lishi ifodasi, sabr va matonati kabi sifatlerini o'z ichiga oladi. Tashkilotchilik sifatlariga esa tadbirkorning faoliyatini uyushtirish va boshqarish, shu jumladan, ishchi xizmatchilarni ishga yondashish ularni ishontira olish va ilhomlantirish kabi sifatlar kiradi:

Tadbirkorning shaxsiy sifatleri tarkibini yana quyidaga sifatlar bilan to'ldirish mumkin: odamlar bilan ishlay olish tajribasi, oliy ma'lumot hajmidagi maxsus bilimlar, ijodiy faollik, omilkorlik, vaziyatga baho bera olish, kelajakni ko'ra olish va boshqalar. Ammo, yuqorida qayd qilingan hamma sifatlariga ega bo'lgan to'kis bir tadbirkorni topish qiyin, chunki, odatda, bir kishida bunday hislatlarning

hammasi jamul-jam bo'lishi mumkin emas. SHunday bo'lsada tadbirkorlar bunday hislatlarga to'liq ega bo'lishga intilishlari lozim.

Ko'p hollarda tadbirkorning otasi, ba'zan onasi ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Bunda o'smirlarning kattalarga taqlid qilish xususiyatlari asosida shakllangan obrazning "rolli modeli" ko'rinishida namoyon bo'ladi. Taqlid obrazi konkret, yaqin insonining ijobiy va salbiy xususiyatlarini anglash ko'rinishida namoyon bo'ladi. O'smir o'z hatti-harakatlarini ushbu model asosida, o'z kuch va imko-niyatlarini "na'muna" bilan solishtiradi.

Yana bir muhim omillardan biri zaruriy, kasbiy va hayotiy tajriba olishdir. Kichik va o'rta biznes tadbirkorlik sub'ektlarining ma'lumotlilik darajasi tahlil qilinganda ayol jinsidagi tadbirkorlarning 70% oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsalar, erkak jinsidagi tadbirkorlarning bu ko'rsatkichi bir muncha pastdir. Mutaxassisligi bo'icha oliy ma'lumot olgan tadbirkorga o'z faoliyatini samarali yuritishda o'zining kommunikativ va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish bir muncha yengillik yaratadi.

Tadbirkorlik faoliyagini samarasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish motivatsiyasi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Boshqa faoliyatlar kabi, tadbirkorlik faoliyati ham o'zining ma'lum bir tizimiga egadir. Tadbirkorlik faoliyati jarayonida foyda olishga qaratilgan maqsad, faoliyatga undovchi motivlar, ehtiyojlar, maqsadga erishish yo'lida o'zgarishi mumkin bo'lgan faoliyat predmeti, maqsadga erishish usullari va vositalari, hamda faoliyat yuritish vaziyatlarida tadbirkor shaxsining psixologik xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik qobiyaitiga ega bo'lgan o'smirlar o'z hatti- harakatlarida do'stona harakaterda, erkin va faol bo'ladilar. Turli toifadagi insonlar bilan oson muloqotga kirishadilar. Ularga turli vaziyatlarda tashkilotchi, rahbar bo'lish yoqadi, shu bois ularda mas'uliyat hissi yaxshi shakllangan. Aynan shu narsani ta'kidlash joizki ular hato qilishlaridan aslo qo'rqmaydilar. Agar o'smir tadbirkorlik oilasida tarbiyalanayotgan bo'lsa bu shaxs xususiyatlarining shakllanishi mukammalroq kechadi. Ko'pchilik o'smirlar shaxsida norasolik kompleksi shakllanishi natijasida

ma'lum bir tadbirkorlik qobiyalatlari tormozlanadi. O'smirda aynan qaysi faoliyat turiga nisbatan tadbirkorlik qobiyatlari shakllanganligini aniqlash uchun uni turli vaziyatlar faoliyati turlarida o'zini sinab ko'rish imkonini berish zarur.

Bu borada o'smirlarni mehnatga jalb etish asosida kasb tanlashga qisman foydalaniladi: qishloq holatidan ko'ra – shaharda yashovchi o'smirlarning yarmidan ko'pi doimiy mehnat topshirig'iga ega emaslar, hamda oila sharoitidan kelib chiqib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlari cheklangan.

Tadbirkorning faoliyati, uning faoliyat motivatsiyasi xususiyatlari omillari bilan bevosita aloqadadir. Tadbirkorning motivatsion-irodaviy xususiyatlarga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: tavakkalchilikka moyillik, ichki lokus nazoratining mavjudligi, o'z maqsadi yo'lida kurashish va maqsadga erishish, hayolning rivojlanganligi, kelajak maqsadlarga yo'naltirilgan mustaqil fikrlash, o'z qadr-qimmatini hurmat qilinishiga erishish, muvaffaqiyatga erishish motivlarining muvoffaqiyatsizliqdan qochish motivlaridan ustun bo'lishi va x.k.larni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasi aniqlash ma'lum bir hayotiy vaziyatlarni muammolarni hal etish maqsadida ham shakllanishi mumkin, masalan: oilaning modiy ahvoli yomonlashganda, oila boquvchisini yo'qotganda, tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida yangi mutaxassislikni egallanganda. Bu holatlar albatta, boshlayotgan faoliyatining samarali bo'lishida, tadbirkor tomonidan faoliyatini yuritilishida, tadbirkor shaxsining zaruriy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yosh ko'rsatkichi alohida ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Agar shaxs tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarga, shaxs xususiyatlariga ega bo'lsa tadbirkorlik faoliyatini 16 yoshda ham, 60 yoshda ham muvaffaqiyatli boshlashi mumkin. Biroq tadbirkorlik faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 21 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan davr eng qulay vaqg hisoblanadi.

Boshqa faoliyatlar kabi, tadbirkorlik faoliyati ham o'zining ma'lum bir tizimiga egadir. Tadbirkorlik faoliyati jarayonida foyda olishga qaratilgan maqsad,

faoliyatga undovchi motivlar, ehtiyojlar, maqsadga erishish yo'lida o'zgarishi mumkin bo'lgan faoliyat predmeti, maqsadga erishish usullari va vositalari, hamda faoliyat yuritish vaziyatlarida tadbirkor shaxsining psixologik xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritish zaruriy axborotlarni yetishmasligi bilan ham karakterlanadi. Bu sharoitda axborot bo'shliqni to'ldirib boruvchi turli ko'rinishdagi axborotlar oqimidan muhim qarorlar qabul qilishda, ko'p hollarda, tadbirkor o'z ichki tuyg'usi "intuitsiyasi"ga ishonishiga to'g'ri kelib qolishi bilan tafsiflanadi.

Bunday vaziyatda tadbirkorlik faoliyati tadbirkorning irodaviy xususiyatlari o'zidagi va atrofdagilarning faoliyat muvaffaqiyatga nisbatan ishonchsizlik fikrini yengib, odatiy qabul qilingan meyor va usullardan voz kechgan holda qarorlar qabul qilinishi bilan tafsiflanadi. Tadbirkorning o'z faoliyati jarayonida ijodiy hayolini taraqqiy etishi, ish tajribasida ongdagi "mavhum" deb qabul qilingan vaziyatlarni ko'payishiga, aniqlashuviga olib keladi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatidagi tavakkalchilikni kamayishiga yordam beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritish faoliyat yurituvchi sub'ektdan mas'uliyat hissini tarkib topishi bilan bog'liqdir.

Mas'uliyat shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatgichlardan sanaladi. Amerikalik olim Dj.Rotterning fikricha, har bir insonda ikki tipli mas'uliyat kuzatiladi. Birinchi tipli mas'uliyat shundayki, shaxs o'zining hayotida ro'y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas'uliyati sifatida faqat o'zini tan oladi. Mas'uliyatni o'z bo'yniga olishga o'rgatilgan bolalarda havotirlik, neyrotizm, konformizm holatlari kam uchrarkan. Ular hayotga tayyor, faol, mustaqil fikr yurituvchilardir. Ularda o'z-o'zini hurmat hissi ham yuqori bo'lib, bu boshqalar bilan ham hisoblashish yashashga sira halakit bermaydi. Mas'uliyatlilikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro'y bergan va beradigan voqea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota - ona, o'qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshk.). [16, 21,24].

Xorij mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ikkinchi turi mas'uliyat ko'prok o'smirlarga xos bo'lib, ulardan 84% mas'uliyatni faqat

boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma'lum ma'noda yoshlar o'rtasida mas'uliyatsizlikning avj olganligidandir.

Mas'uliyat yoki mas'uliyatlilik bu kishining har bir bajargan amallari, qilgan ish-harakatlari, gapirgan so'zlari mazmunini oldindan aniq tasavvur qilish, ular uchun o'zida javobgarlikni to'la his etish qobiliyatidir. Mas'uliyatli kishi har bir hatti-harakati uchun atrofdagi kishilar, ota-ona va tanish-bilishlari oldida javobgar ekanini chuqur his etadi. U biror gapni gapirish, biror amalni bajarishdan oldin uning oqibatini o'ylaydi, boshqalar oldida uyalib qolmaslikka harakat qiladi.

Mas'uliyatli tadbirkor hamisha va'dasining ustidan chiqadi, rejalashtirgan ishlarini albatta bajaradi. Va'da bajarilgach nafaqat foyda olish, balki chuqur qoniqish, xursand bo'lish hissini boshidan kechiradi, o'zini yengil, bardam his qiladi. Aksincha, mas'uliyatsiz kishilar esa beburd, beandisha, yengil tabiat bo'ladilar, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda sheriklariga ko'plab va'dalar beradilar, lekin gaplarining uddasidan chiqmaydilar. SHuning uchun ishbilamon insonlar bundaylarga ishonmaydilar, ularni hurmat qilmaydilar. Ular haqida "va'daboz", "gapini burdi yo'q", "engil-elpi odam" deb gapiradilar.

Mas'uliyatni chuqur his qiladigan kishi hamisha oldiga yuksak maqsadlar ko'yadi, ishni puxta rejalashtiradi, unga erishish uchun butun kuch va salohiyatini sarflaydi. Mas'uliyatli kishining ish sifati ham, samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Demak, tadbirkorlik jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi. SHunga ko'ra, o'smirlarda ushbu faoliyatni yuritish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy psixologik shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish amaliyotchi psixologlar faoliyatining zaruriy vazifalridan hisoblanadi.

1.2. O'smirlardagi kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari.

Kasbni to'g'ri tanlash – o'smir hayotida muhim qadamdir, zero o'smir hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Aynan shu bois amaliyotchi - psixolog kasb - hunar kollejiga o'qishga kirgan o'smirlarning kasb tanlash motivlari, maqsadlari kelajak istiqbolli rejalarini o'z vaqtida o'rganishi zarur.

Kasbni to'g'ri tanlash har o'smirning qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular, ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi.

Inson bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday holda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, **“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”**ning qabul qilinishi o'quvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish, ish o'rinlarini bo'shab qolish jarayonlari jadallashadigan va ishchilarning malakalariga qo'yiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini ratsional va samarali bandligini ta'minlashdagi kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy roli shundan iboratki, yoshlar va aholi tomonidan kasbning ongli va ilmiy asoslangan tanlovi ularni mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishishda zamin yaratadi. Iqtisodiyot sohalaridagi kasb-hunarga bo'lgan mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta'lim va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo'riqish holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Bu borada asosiy yo'nalish qilib, O'zbekiston Respublikasining **“Ta'lim to'g'risida”**gi Qonuni, **“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”**, halqaro mehnat

tashkilotining Nizomlari, konventsiyalari va takliflar, bir qator boshqa hujjatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning bu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olindi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi Vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis Markazlari tomonidan bosqichma-bosqich va muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan rasmiy jihatdan qabul qilingan qarorlardan birida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish yuzasidan umumiy qoidalarda quyidagilar ta'kidlangan: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan tashkil etilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi har bir tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari tuzilmasida, o'z hududlari doirasida bolalar rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashhis qo'yish, ularning qobiliyati va moyilligini aniqlash, bolani 6 yoshdan boshlab maktabga qabul qilish to'g'risida tavsiyanomalar berish, o'quvchilarni har yili tibbiy-pedagogik tekshirishlardan o'tkazish, bolalarga va ota-onalarga o'quvchilarni o'qitishda, tarbiyalashda va ijtimoiy moslashtirishda psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, shuningdek, maktab o'quvchilariga, ularning qobiliyatlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko'nikmalarini hisobga olgan holda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta'lim yo'nalishini tanlashda ko'maklashish maqsadida tuzilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi va u orqali boshqa tashkilotlarning ilmiy-metodik rahbarligida: o'quvchilarning kasb-hunarga layoqat yo'nalishlari va qobiliyatlari darajasini tashhis etish ishlarini maktablarda muntazam ravishda olib borilishini;

Har bir o'quvchi haqida uning qiziqishlari, intilish va layoqatlari, erishgan yutuq va kamchiliklari, aqliy va umumiy rivojlanishi haqidagi ko'p yillik psixologik

va pedagogik tashhis ma'lumotlari bankini tashkil etilishi, tartibga keltirilishi, maxsus daftar va dasturlar yordamida qayd etib borilishini;

Kasb-hunar klassifikatori hududda mavjud bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha axborot to'playdi va targ'ibot qilishni tashkil etadi.

O'quvchilarni dasturda ko'zda tutilgan kasblar bilan tanishtirishdan tashqari kasbini targ'ib qilish, ya'ni bolalarni ushbu hudud uchun zarur bo'lgan kasblar bilan tanishtirish, ularda yana shu kasblarga nisbatan hurmat-ehtiromni tarbiyalash, shu kasblarning jozibali jihatlarini ochib berish lozim.

Bu borada darsdan tashqari o'quv dasturida ko'zda tutilgan korxonalarga qilinadigan ekskursiyalar katta rol o'ynashi mumkin. Kasbga yo'naltirish ishiga kompleks yondashish o'quvchilarni har tomonlama o'rganishni ham ko'zda tutadi. Bu tadbir o'quvchilar bilan ishlashning to'g'ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O'rganishni metodlar bilan o'tkazish zarur, eng muhimi - bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish kerak. [5,8,18,20].

O'smirlarning kasb tanlashi, ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur. Sanoat tez rivojlanayotganligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo'yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi. Umumiy ta'lim maktabida mehnat poletexnika ta'limi sharoitida kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Ijodiylik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirishda o'smirlarda mehnatga qiziqish va mehnat qilish ehtiyoji kata ahamiyat kasb etadi . [18].

Kasb tanlashdan asosiy maqsad jamiyatga, oilaga foyda keltirib, inson o'zi ham ma'naviy qoniqish hosil qilishidir. Kasb tanlash o'smir uchun eng murakkab

jarayon, chunki bu uning o'smirlik va o'spirinlik davriga to'g'ri keladi. Bu vaqtda uning shaxsi to'liq shakllanmagan va bunday ma'suliyatli qarorga kelishi uchun unda yetarlicha bilim va malakalar yetarli bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyotining qonuniyatlaridan biri turli turdosh kasbiy faoliyatga moslashish imkonini beruvchi kasbiy egiluvchanlik va mobillik xususiyatlariga o'smirlarning ega bo'lishlarining zaruratidir. Ya'ni zarur bo'lgan vaqtda o'z kasbiy faoliyatini o'zgartirish yoki qayta taayorgarlikdan o'tish imkoniga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada umumiy o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lish, keng ko'lamdagi kasbiy tayyorgarlik, yuksak darajada rivojlangan madaniy, ma'naviy rivojlanish, o'z bilim va ko'nikmalarini jadallik bilan rivojlantirishga intilish kabi shaxs xususiyatlari zaruriy omillardan hisoblanadi.

O'smirlardagi kasbiy yo'nalganlikni o'rganish ko'p jihatdan shaxs psixologiyasi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bir tomondan shaxs rivojlanishi o'smirning kasbiy tanlovi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan kasbni egallash jarayonida o'smir shaxsi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

O'smirlarning kasbiy yo'nalganligi faqatgina ma'lum bir kasbni egallash jarayoniga bo'lmasdan, undagi bir ma'naviy rivojlanish jarayonining ma'lum bir qismini tashkil qiladi. N.S.Pryajnikov o'smirlardagi kasbiy yo'nalganlik ma'lum bir tarixiy madaniy rivojlanish sharoitlarida undagi hayot mazumini va maqsadlarini mustaqil anglash asosida shakllanishini ta'kidlaydi. [117].

Kasb tanlash sohasidagi o'smirning tanlovini qayta ko'rib chiqish holatini ayrim mualliflar odatiy hato deb ta'kidlasalar, boshqalari kasb tanlash jarayonidagi meyo'riy holatdan og'ish deb hisoblaydilar.

D.Skyuper fikricha inson tajribasi va yoshi ulg'aygan sari kasb tanlash sohasida ob'ektiv va subektiv sharoitlar o'zgarib boradi, natijada inson ilgari tanlagan kasabga nisbatan munosabatini o'zgartiradi. Insondagi "men" timsolidagi undagi ulg'ayish jarayonidagi o'zgarishlar kasb tanlash determinatlarini o'zgarishi asosida shakllanadi. D.Skyuper insonning ontogenetik rivojlanishining turli bosqichlarida kasb tanlash xususiyati turlicha ekanligini ta'kidlaydi. Masalan: kasb tanlash sohasida ma'lum bir ma'lumot va ko'nikmalarni egallab bo'lganlarga

nisbatan, ilk marotaba kasb tanlash arafasida turgan shaxs oldida tanlov imkoniyatlari kengroqdir. SHunindek bu tafovut jamiyatning turli ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lganlar orasida ham turlichaligini aniqlagan. Oilali va oila qurmaganlar o'rtasida ham kasb tanlash sohasiga turlicha yondoshadilar. [17].

D.Hollandni fikricha barcha mavjud kasblarni mavjud guruhlarga kiritish mumkin. Insonlarda nafaqat ma'lum bir kasb –hunarga, balki ma'lum bir vazifalarga (rahbarlik) ijtimoiy rollarga nisbatan layoqatga egadirlar. Kasbiy rivojlanish quyidagi chegaralarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan individ tomonidan qaysi shaxs tipiga mansubligini aniqlanishi;

Ikkinchidan ushbu shaxs tipiga xos bo'lgan kasbiy sohani aniqlashtirish;

Uchinchidan o'zidagi intellekt va o'z-o'ziga baho berish darajasiga asoslangan kasbiy darajani tanlash. [17].

O'smir shaxsida tadbirkorlik faoliyatga nisbatan motivatsiyani shakllantirish bu borada muhim tarbiyaviy vazifaga aylanadi. Motivatsiya (motivlashtirish) – tadbirkorlik faoliyati uchun motivlarni o'smirlar tomonidan tanlanishi tufayli mehnat xatti-harakatida namoyon bo'ladigan jarayon.

Bo'lajak tadbirkorlarga xos ruhiy va ichki kechinmalar ularda tadbirkorlik ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda rivojlanadi. Bu borada ularda quyidagi xususiyatlarni tarkib topishi muhimdir:

-o'z xatti-harakatlarini tankidiy baholay olishi;

-o'z imkoniyatlarini hisobga olib ishlashi;

-boshqalarning uning faoliyatiga bergan yaxshi va yomon baholarni tahlil etib borishi;

-tadbirkorlik faoliyatida ko'p uchrab turadigan tavakallichilikni mantiqiy tahlil qilish;

-fikrni og'zaki va yozma shaklda qisqa, tushunarli aniq tarzda ifodalash;

-qiyin vaziyatlarda ham mulohazakor bo'lish qobiliyati, hazil-mutoiba tuyg'usi bo'lishi;

-harakatga intilish va uni himoya etish, samimiylik, halollik va x.k.

D.Holland shaxs kasbiy yo'nalganligining asosiy tiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: realistik, intellektual, ijtimoiy, konventsional va san'atga yo'naltirilgan tadbirkorlik.

Ushbu klassifikatsiya faqat aniq xususiyatga asosan belgilanganligi mantiqiy asosga ega emasligi shu bilan izohlanadiki, ko'p hollarda individ xech qaysi tipga tushmaydigan, yoki bir necha tipiga xos bo'lgan kasbiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin [17].

D.A.Leontev kasb tanlash aktini ikki omil asosida belgilanishini taklif qilgan.

- a) Barcha mavjud tanlovlar;
- b) Ulardagi xususiyatlarni taqqoslash kriteriyalari.

Kasb tanlash jarayonida asosiy omil sifatida D.A.Leontev va E.V.SHelobanovlar kelajakdagi qabul qilgan qarorlarini oqibatlarini, imkoniyatlarini real obrazlarini o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish imkonini berishishi mumkin bo'lgan konstruktiv-bilish faliyati deb hisoblaydilar. Ya'ni kelajakni tahlil qilish psixikaning murakkab kognitiv jarayonlari va mexanizmlariga tayanadi.

Amaliyotda kasb tanlash jarayonida quydagilar tavsiflanadi:

- 1) Oilaviy an'anaga ko'ra kasb tanlash;
- 2) Tasodifiy kasb tanlash;
- 3) O'z intilishlariga ko'ra kasb tanlash;
- 4) Ko'proq daromad keltiradigan kasbni tanlash;

Tadbirkorlik faoliyatida to'rtinchi variant ko'proq ahamiyat kasb etadi. Mustaqil tarzda kasb tanlashda quyidagi omillarni o'rganishni talab qiladi:

- a) Mehnat bozoridagi ehtiyojlarni o'rganish;
- b) Anglagan faoliyatning shartlarini o'rganish, undagi qiyinchiliklarni e'tiborga olish;
- v) Tanlagan faoliyati natijasida olishi mumkin bo'lgan mukofot va daromadlar;
- g) O'zidagi moddiy va jismoniy imkoniyatlarni tahlil qilish.

E.Nurmi, D.A.Leontev, Ye.V.SHelobanova tadqiqotlarida aniqlanishicha o'smirlarning hammasida ham bilish jarayonlarining rivojlanishi murakkab

vaziyatlarda qarorlar qabul qilish uchun tayyor emasligini ko'rsatdi. E.Nurmi 16-17 yoshda o'smirdagi psixologik funktsiyalar rivojlanishi hali yakunlanmanganligi bu rivojlanish 20 yoshgacha davom etishi mumkinligini aniqladi.

G.S.SHlyaxtina, shaxsdagi emotsional xususiyatlarni o'rganishda o'smirlik va o'spirinlik davrida hayotiy rejalarni tuzishda kelajakdagi kasb tanlash undagi ijtimoiylashuv jarayonida yetakchi ahamiyatga ega bo'lishligi ta'kidladi.[14]. Muallif fikricha kelajak orzularga, istiqbolli rejalarni tuzish hali ma'lum bir ma'noda real bo'lmagan idealistik ko'rinishda bo'ladi.

Kasbiy yo'nalganlikni shakllantirish jarayonida o'smir shaxsini o'rganish bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'smirning alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini korrektsiyalashi mumkin va h.k.

Ba'zi o'smirlarni kasbga moyilligi yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik o'smirlarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining o'smirdagi iste'dod nishonlarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda amaliyotchi psixolog bilan hamkorlikda olib borilishi muhimdir.

Kasbga yo'naltirishda kasblarning psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslik natijasida bir necha kamchiliklarga yo'l qo'yilishini kuzatishimiz mumkin: [10,11, 18,].

O'smirlar bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy hislatlari, aql-farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi. Bunday qoyil qolish beihtiyor sevimli qahramoni shug'ullanayotgan ishga ham o'tiradi. Binobarin, o'smir unga taqlid qilish yo'lidagi muddaosiga qandaydir ahloqiy hislatlardagina unga o'xshash bo'lishni emas, balki o'zini ham ana shu kasbga bag'ishlashni istaydi. Bunda o'quvchi o'sha ma'naviy fazilatlar boshqa ishda ham namoyon bo'lishi mumkinligi haqida o'ziga ko'pincha hisob bermaydi. Badiiy adabiyotlardagi, kinofilmdagi qahramonlar ko'pincha ana shunday munosabatni

tug'diradi. Tanish-bilishlaridan, qarindosh-urug'lardan birontasi, chunonchi o'qituvchilar taqlid qilish uchun ko'pincha na'muna bo'lib xizmat qiladilar.

1. Taqlid qilish uchun o'qituvchi na'muna bo'lgan chog'da o'quvchi unga bo'lgan yaqinligi, mehribonligi u o'qigan fanga ham tadbiq etad. SHunday ham bo'ladiki, masalan, o'quvchida biologik fanlarga bo'lgan qiziqish, havas aniq-ravshan ko'rinib turadi, lekin unga adabiyot o'qituvchisi yoqqanligi uchun u o'zining butun fikr-zikrini adabiyot bilan bog'laydi.

2. O'quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish. O'smir ta'lim muassasidagi fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asoslanib, ko'pincha bo'lg'usi kasbni belgilaydi. O'quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo'lsa, bu u adabiyotni amaliy jihatdan qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasa ham adabiyot mening sevgan fanim, deydi. U kasbni emas, balki bilimning o'zini qiziqituvchi sohasinigina tanlaydi, bu sohada nimani istayotganini va nima qilish mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3. Kasbni tashqi jihatida bilangina qiziqish. O'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular uchuvchi, geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu-mutlaqo tabiiy hol, albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jihatlarinigina ko'rib, shu kasblarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bilmaydilar. O'quvchilar u yoki bu kasb to'g'risidagi o'z romantik tasavvurlarigagina amal qilib, kasb egallashga o'zlarini jiddiy tayyorlamaydilar va natijada maxsus o'quv yurtlarida yoki tajribada kasb qiyinchiliklariga duch keladilar.

4. Mehnatning aqliy mazmuni ba'zi kasblarda, ayniqsa ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurning mavjudligi navbatdagi kamchilikdir. Yoshlarimiz, odatda, yengil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy hislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblar ijodiy, aqliy jihatdan o'sish uchun yetarli darajada imkoniyat bermaydi deb, ana shunday kasblarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiradilar. Kiyim tikishda zo'r qobiliyat ko'rsatayotgan qiz qanday

bo'lmasin shifokor bo'lishni orzu qilishini, dastgohda yuksak mahorat bilan ishlayotgan yigit tokarlik kasbi haqida eshitishni ham istamayotganligi singari faktlarni ayni shu narsa bilan izohlash mumkin.

5. O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik. Bunda o'quvchi biron ishni ado etishi uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq hamma joyda uning oldida barcha yo'llar ochiq ekanini, hammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarni qilish lozimligini unga ta'qidlaydilar. SHu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

SHunday hollar ham bo'ladiki, o'smir chizgan surat va rasmlar o'rtamiyona bo'lsa ham u zo'r berib rassom bo'lishga yoki matematikani yaxshi bilmasa ham texnika ta'lim muassasalariga kirishga harakat qiladi. Afsuski, bunday holda kam emas. Ana shunday yoshlar turmushda omadsizlarni, notavon xodimlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

O'quvchilarning u yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaslik. Masalan: mayda ish (soat zavodida, aniq asboblarni zavodida va shu kabi joylarda) bilan bog'liq kasblar uchun ko'rish organining zaifligi, transportda ishlash uchun to'g'ri kelmaydigan daltonizm hastaligi, o'smir geolog bo'lishni xoholasa ham lekin yuragining zaif bo'lishi, radiolokatsiyada ishlashni tanlagan yoshlarning eshitish borasidagi kamchiligi, dengizda suzish va yerdagi transportning ba'zi turlarini va shu kabilar ana shunday kamchiliklar jumlasidandir. O'smirlar o'zlari tanlagan kasblarga to'g'ri kelmaydigan bu nuqsonlarini bilmasliklari oqibatida mos bo'lmagan kasblar bo'yicha ishga yoki tegishli o'quv yurtlariga qabul qilmaganlarida juda ham xafa bo'ladilar, tushkunlikka tushadilar.

O'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash. O'quvchi o'z istaklarini ro'yobga chiqarishni o'ylab ham ko'rmagan bir paytda uning sinfdosh o'rtoqlari kasb tanlash haqida fikr yuritadilar. O'quvchi bunda o'rtoqlaridan ajralib qolishni xohlamaydi, chunki ularning orzulari yorqin, jozibalidir. SHu tariqa "men ular bilan birga

bo'laman, chunki menga baribir" deydi. Keyinchalik esa u qiynala boshlaydi, azob chekadi, noto'g'ri kasb tanlaganiga pushaymon bo'ladi, o'zini qiziqitmagan, o'ziga yoqmagan kasbda ishlayotganidan xafa bo'ladi.

Tasodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash. Ba'zi o'smir mashina ustaxonasi yaqin bo'lgani uchun ishga kirdim, deydi. Ammo o'zi bu kasbni uncha yoqtirmaydi. Ayrim o'smirlar ma'lum bir kasb-hunar kollejiga kirishga tanlov uncha katta bo'lmaganligi uchun o'sha bilim dargohida o'qishga qaror qildim, deyishadi. Biroq ular bu kasb bo'yicha ishlashni hayoliga ham keltirmagan bo'ladilar. Ba'zi yigit yoki qiz; laborant bo'lib ishga kirdim, chunki tanishlarim yordam qildi, deyishadi. Lekin bu ishning o'ziga manzur bo'lish-bo'lmasligini sira ham o'ylashmaydi.[16, 17,].

O'smirlarning yetarli darajada tajribaga ega bo'lmaganliklari va katta yoshdagi kishilarning malakali yordam bermaganliklari oqibatida kasb tanlashdagi bunday hatolarni oldini olish zarur.

Amaliyotchi psixologlar bunday vaziyatlarda o'smirlarning kasb tanlashi sohasiga malakali yordam berishlari kerak. O'smirlar esa ana shu yordamga tayanib, kelgusidagi hayot yo'li to'g'risidagi masalani mustaqil hal qilishari lozim. O'smirlarni kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

1.3. O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda oilaning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari.

Bitta oilaga mansub qarindoshlarning birgalikda ma'lum bir yo'nalishdagi tadbirkorlik faoliyatini yuritilishi "oilaviy tadbirkorlik" yoki "oilaviy firmalar", "oilaviy biznes" degan atamalar bilan nomlanadi. "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq, oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati bo'lib, o'z ishtirokchilarining ihtiyoriyligiga asoslangan. [5].

Iqtisodiy jihatdan buning sharti shuki, tadbirkorlik faoliyati oilaviy firma sifatida qolishi uchun uning kapitali shu oila qo'lida bo'lishi va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishi kerak. Rivojlangan davlatlarda oxirgi yillarda oilaviy kompaniyalarning ko'payish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Ayrim tahlilchilarning ma'lumotlariga qaraganda, Rossiyada iqtisodiyotning ma'lum bir sohalarida (masalan, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, tekstil sanoati, IT-texnologiyalar va savdoda) bo'lgan kichik va o'rta korxonalarning deyarli 80 foizi oilaviy kompaniyalar hisoblanadi.

Oilada o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda avvalo, o'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlarini inobatga olish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'smirlar o'zlarining kelajakdagi hayot faoliyatlarini o'z orzularida loyhalashtiradilar. Ular o'zlari mustaqil ish yuritishni istaydilar, ularning ko'z oldida taniqli kasb egalari gavdalanadi. Bu mamlakatimiz hayotidagi keng va chuqur hodisalar bugungi kundagi tadbirkorlik faoliyatlari bilan ham bog'liqdir. So'nggi yillarda o'smirlarning orzulari jamiyatimizning, ijtimoiy-ikgisodiy foydali faoliyatda qatnashishiga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'lmoqda. O'zlarining kelajak hayotlari, jamiyatda tutgan o'rinlarini mehnat va tadbirkorlik bilan bog'lamoqdalar. O'smirlik yoshida harakarning irodaviy sifatleri, ya'ni qat'iylik, maqsadni amalga oshirish, matonat, uchraydigan to'siq va qiyinchiliklarni yengish kabi hislatlar sezilarli darajada rivojlanadi. Ota-onalar tomonidan o'smirlarga tarbiyaviy ta'sir qo'llanilganda, ularning mustaqilliklari, faolliklari, tashabbuskorligi, o'z-o'zlarini boshqara olishlarini nazarda tutish talab etiladi. Mana shundagina o'smir mas'uliyatdan bosh tortmaydi, ularda oiladagi jamoaviy mehnatga burch

hissi, o'zaro yordamlashishga intilish, birdamlik, kerak bo'lgan paytda bo'ysunish odatlari tarkib topadi.

O'smir uchun katta kishilarning xatti-harakatlari, xususan, ota-onalarining shaxsiy na'munalari muhim ahamiyatga ega. Aytish joizki, uning qalbidan xech bir narsa ota-onaning ibratidek kuchli va mustahkam o'rin egallamaydi. Ota-onalar o'smirlarni nafaqat so'zlari bilan, balki xatti-harakatlari bilan ham tarbiyalaydilar. Ayrim tasodifiy hatolar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar o'smirlarning xatti-harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'smirlarda faoliyatning u yoki bu turiga qarab qobiliyatlar tarkib topa boshlaydi. Buning sababi shuki, o'smirlik yoshida chuqur, ta'sirchan, barkaror qiziqishlar yuzaga keladi, atrofga ongli munosabatda bo'lish hissi tarkib topadi, mustakil, ijodiy tafakkur taraqqiy etadi. Ota-onalarning vazifasi ana shu qobiliyatlarni o'stirish, faollik bilan tarkib toptirish uchun qulay shart-sharoit yaratib berishdir. O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hisoblangan yangi hislatlarning tarkib topishi - ularda o'ziga xos kattalik hissining vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

O'smir bu hissiyotni oila jamoasida, uning to'laqonli a'zosi sifatida, o'zini katta yoshdagi mashxur insonlarning shaxsiy na'munasida ado etadi. O'smir hafsala bilan mehnat qilishga intilishi tufayli, o'zida tarkib topgan kattalik hissini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda uning faollik, tashabbuskorlik xususiyatlari ko'zga tashlanadi. O'smirlik yoshi haqida fikr yuritganda undagi xotira va diqqatga to'xtalib o'tish joiz. Bu o'z navbatida o'smirning biron-bir materialni esda saklab kolish maksadida, fikrlarni mujassam-lashtira olishi, esda saklab kolishi, ongli ravishda harakat qilishiga olib keladi. O'smir esda saklab kolish orkali jarayonni tezlatish, voqea-xrdisalarni takkoslash va tizimga solish ishlarini amalga oshiradi. Sekin-asta yangi materiallar bilan eskisini bog'lay oladilar. Bu esa mehnat jarayonida xatti-harakatning . yangi usullarini bevosita ilgarigisi bilan mujassamlashtira olishiga olib keladi. O'smir ruhdapgidagi xususiyatlardan yana biri t o'z-o'zini anglash xdasining tarkib topishidir. «Mening qanday yaxshi tomonlarim yoki kamchiliklarim bor?», «Oilamga qanday naf keltirishim mumkin?» kabi savollarning moedayatini tushunib, o'zini o'zgalar bilan takkoslash, o'ziga bax;o berish, kuchli yoki kucheiz tomonlarini bilishga intiladi. U kuprok O'z fikr-uylari dunyosida mushvdada qilish, nazariy bilimlarni boyitishga intiladi.

SHu tarzda o'smirlarni oilada mehnat qilish "ota-kasb" tizimidagi kasblarni tanlashga ,oilaviy tadbirkorlik faoliyati boshlash imkonini boshlab beradi.

- Oilada, ota-onaning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi yoki shug'ullanmasligi katta ahamiyat kasb etmasada, tadbirkorlar oilasida o'rnatilgan demokratij munosabatlar, o'smirda tashab-buskorlik, mustaqilliq, hayotga ijobiy yondoshuv tashabbuskorlik kabi tarkib topishi g'urur o'zinn hurmat qilish hislarining shakllakishiga sabab bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtoritar, qatgiq intizom o'rnatilgan oilalarda, o'smirning mustaqilligi va tashabbuskorligi inkor etiladigan sharoitda tarbiyalangan o'smirlardan odatda tadbirkorlar yetishib chiqmaydilar. SHunga qaramasdan, oila sharoitidan kelib chiqqan holatda, bolalarga mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnatning hamma turi qo'lidan keladigan ish mazmunini bajarishda mehnatga va kasb tanlashga qiziqishlarini rivojlantirish bilan chambarchas uzviy bog'langan. Bu borada, muntazam qiziqish o'smirlarni faollikka, ijodga, yaxshi sifatli natijaga erishish uchun kuch jamlashga undaydiO'smirlar mehnatini tashkil qilishda quyidagilardan kelib chiqish kerak: mehnat ular uchun quvonchli hissiyotlar bilan to'la qiziqarli jarayon sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bu borada iqtisodchilar, psixologlar tomonidan tadbirkorlar avvalo sabrli ishchilar ekaligini aniqlangan.

Oilada tadbirkor ota-onalar o'z farzandlaridagi sabr-qanaoat hissini qo'llab quvvatlaydilar. Nizoli vaziyatlarda o'smirning xulqi oiladagi munosabatlar tabiatiga bog'liq holda shakllanadi. Notinch oilalardagi munosabatlar o'smirlarda tadbirkorlik xususiyatlarini shaklanishiga to'sqinlik qiladi Tadbirkorlik oilalarida o'smirlar faoliyatidagi "tavakkalchilik" ota -onalar tomonidan ko'p hollarda qo'lab quvatlanadi. [12,13,20].

Tadbirkorlar oilasidagi munosabatlar jarayonidagi tarbiya o'smirlarda ma'lum bir ma'noda o'zlariga o'xshash insonlarni tarbiyalashga yo'naltiriladi Bu oilalarda o'smirning kasb tanlashi jarayonida odatda bosim o'tkazilmaydi O'smirlar o'tkazilgan bosim tavakkachilikni kuchaytiradi. Lekin shu bilan birga o'ziga ishonchni pasaytiradi.

O'smir yoshida har tomonlama rivojlanish bilan birga, mustakillikning ortishi hisobiga ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi. Ular o'z imkoniyatlarini yuqori baholaydilar, atrofdagilar esa ayrim hollarda ularning kuchi, irodasi va salohiyatiga ishonchsizlik bilan karaydilar.

Lekin shunday bo'lsada, o'smir xatti-harakatini ota-onalari tomonidan tan olinishiga erishishga harakat qiladi. Bu kabi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishonchli yo'llaridan biri — o'smirlarni o'ziga xos jismoniy va psixik taraqqiyotini aniq hisobga olgan holda, ular bilan o'zaro teng sub'ekt-sub'ekt darajasidagi munosabatlarda bo'lish, ko'proq jamoat ishlari, mehnatga qiziqtirish, ular uchun ta'sirchan talablarni oilada qo'llay bilish, talablar sog'lom va tarbiyaviy ta'sirchanlik harakteriga ega bo'lishi lozim.

O'smir oilada ota-onalari qatorida turib mehnat qilishi va qilayotgan ishining natijasidan quvonishi, g'ururlanish hissi evaziga o'z «men»i tug'risidagi tasavvurlari ijobiy, o'z-o'ziga bahosi ob'ektiv va adolatli bo'lishi ta'minlanadi, o'zining nimalarga qodir ekanligini aniq tasavvur qila oladi.

Amaliyotchi psixolog o'smirlar ota-onalari bilan tushuntirish ishlarini olib borishida oilada o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagilarni inobatga olish zarurligi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borishi maqsadga muvofiqdir:

- O'smir qobiliyatini oldindan baholash. O'smirning muayyan faoliyat to'rini qay darajada o'zlashtira olishini ota-ona oldindan aniqlashi zarur.

- O'smirning mehnatini uning kuchiga yarasha taqsimlash. Me'yordan ortiq talab uning toliqishi, o'ziga nisbatan ishonchsizlik hissining ortishi, ishdan bo'yin tovlashiga olib keladi.

- Iste'dodni rag'batlantirish. O'smirning hatti-harakatiga ota-onaning munosabati — mayl va qiziqishlarini munosib baholash, ularga dalda berish, rag'batlantirish o'smirlarda muayyan faoliyatga qiziqishni orttiradi.

- Talabchanlik. Ota-ona o'smirning muayyan harakatni bajarishi davomida ishni sinchkovlik bilan puxta, vijdonan bajarishi, asbob-uskunalar, mehnat kurollariga extiyotkor, xom ashyoga nisbatan tejamkor bo'lishni talab etishi lozim.

- O'smirlarning tadbirkorlik faoliyatida:

- Ruhiyatidagi tetiklik;

- O'z mehnati natijasidan zavklanish;
- Ko'proq foyda ko'rishga intilish;
- Bozor qonun-qoidalarini tushunish;
- "Tadbirkor" bo'lishga intilishi va g'urulanish;

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda o'smirlar: real voqelikda o'zlari duch kelgan muammolarni yechishda mustakil bo'lishlari;

Maqsadli ish olib borishlari; yaratilgan vaziyatdan o'rinli foydalana bilishlari muhimdir. Bunday o'smirlarda tadbirkorlikka moyillik borligi aniqlangan va bu sifatlarni rivojlantirish imkoniyat-lari belgilab berilishi lozim degan hulosaga keldik. Buning uchun: o'smirlarga tadbirkorlikning mazmun-moxdyatini anglatish;

Ularni tadbirkorlikka oid yangiliklardan muntazam xabardor qilish;

Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish va uni takomillashtirishga o'smirlarni o'rgatib borish.zarur. [13,17,].

Amaliyotchi psixolog oilada o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagi vazifalarni xal qilishi lozim:

- Oilada qanday psixologik muxit va an'analar mavjudligi hamda ularning o'smir shaxsiga ta'sirini aniqlash.
- Tadbirkorlik madaniyati, haridor va sotuvchining haq-xuquqlarini o'smirlarga anglatish.
- Tadbirkorning qat'iyatli, adolatli bo'lishi zarurligini ular ongiga singdirish.

Tadbirkordagi adolatlilik, qat'iyatlilik xususiyatlariga o'z vaktida Sohibqiron Amir Temur yuksak baho bergan edi: "Ishbilarmon, mardlik, shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz loqayd kishilardan yaxshidir" degan o'gitlari oilada o'smirlarni tadbirkorlikka o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan profilaktik suhbatlar jarayonida amaliyotchi psixolog shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'smirlarda tadbirkor shaxsiga xos umumiy, ijtimoiy-ma'naviy sifatlarini shakllantirish uchun ularda quyidagilarni tarkib toptirish lozim:

- tadbirkorning ma'naviy, madaniy sifatlar va dunyoqarashga ega bo'lish;

- o'z ishidan mamnun bo'lishi, jamiyatga foyda keltirishga intilish, millatparvar va xalqparvar bo'lishi;

- irodali, matonatli, ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi.

Tadbirkorlikni rivojlanishi asos bo'ladigan omillardan biri - oilalarda o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga bo'lgan ehtiyojning kuchayayotganligidir.

Tadkikotchi M.Rasulov tadbirkorlik faoliyatini tanlashda quyidagi omillarga e'tibor karatish zarur deb hisoblaydi: ma'lumoti, uning harakteri, karindoshlarining ta'siri, oldingi xizmati, jamg'arilgan jayotiy tajribasi, shaxsiy jayotida yuz bergan voqealar, ishiga munosabati, hayotiy rejalari va oilaviy ahvoli. O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga ta'sir etuvchi bolaligidagi oilaviy muxit ahvolini o'rganish natijalari ancha sarmazmun bo'lib, ko'pchilik tadbirkorlarning ota-onalari hunarmand-tadbirkor bo'lganliklari aniqlandi. Ham otalari, ham onalari tadbirkor bo'lgan oilalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, o'smirlarning tadbirkorlik faoliyatini tanlashlarida vorisiylikka asoslangan ota-onalarning tasiri katta. Ota-onalarning o'z ishiga munosabati bilan tadbirkorlik sohasidagi muvaffaqiyati o'rtasidagi aloqadorlikni yorituvchi hamda tashlil kiluvchi ma'lumotlar ko'plab uchraydi.

Tadbirkorlar o'zlarining faoliyatlari, maqsad sari intilishlariga ko'ra katta obro'-e'tiborga egadirlar. Ular o'z ishlariga sadoqatli, fidoiy kishilardir. Tadbirkorlik harakatining muvaffaqiyatini ta'minlash, yosh tadbirkorlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishlari uchun barcha imkoniyatlarini safarbar qilishga ularni undovchi ma'lumotlar keng ommalashtirish maqsadga muvofiqdir. Tadbirkorlikka bo'lgan ijobiy munosabat bu faoliyat egasining hayoti, turmush tarzi va shaxsiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Tadbirkorning kundalik faoliyati firmalar, korxonalar, savdo rastalari bilan bog'liq bo'lib, foyda olish ular faoliyatining asosiy maqsadiga aylanadi va bu sohadagi muvaffaqiyatigina ularni kanoatlantiradi. SHu bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishning zamonaviy psixologik usul va vositalari tanlanishida oilaviy tarbiya va munosabatlar tizimini pedagoglar amaliyotchi psixolog tomonidan yaqindan o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Oilalarda ota-onalarning kuchi-g'ayrati, sabrliligi, mehnatga munosabati mazkur oilalardagi o'smirlarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning xosil bo'lishiga ko'maklashadi.

Amaliyochi psixologning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan oilalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan psixologik targ'ibot va tashviqot ishlaridan biri – o'smirlarda tadbirkor shaxsiga xos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishda yaqindan yordam ko'rsatishidan iborat .

1.4. Oilaviy tadbirkorlik jarayonidagi nizoli vaziyatlar va ularni hal etishning ijtimoiy psixologik usul va vositalari.

Oilaviy tadbirkorlik jarayonida nizoli vaziyatlar tez-tez uchrab turishi ko'p hollarda iqtisodiy emotsional ijtimoiy psixologik omilarga bog'liq bo'lib, bu muammolarga ham oilaviy ham iqtisodiy muammolari qo'shilib ketadi. Qarindoshlar o'rtasidagi raqiblik shaxsiy ehtiyojlarning to'qnashuvi tadbirkorlik faoliyatini yuritishdagi o'zaro kelishmovchiliklar asosida chuqarlashadi. Bu holat o'smirlar hissiy emotsional holatiga salbiy qilishi, ularda salbiy shaxs sifatlarini tarkib topishiga sabab bo'lishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlikdagi nizolar uchun asosiy sabablar. [21].

Tadbirkorlik faoliyati yuritilishini yo'nalishiga nisbatan yagona fikrning bo'lmasligi (qarashdagi tafovutlar):

- Ishbilarmonlikning ijtimoiy nufuzini yuqoriligiga da'vogarlik oilaning bir a'zosi qarindoshiga nisbatan o'zini ko'proq malakaga ega deb hisoblashi.
- Tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishda qarindoshlik va ishbilarmonlik munosabatlaridagi orasidagi xususiyatlarni belgilashni bilmaslik.

Ko'pincha oilaviy tadbirkorlikka tegishli tajribasi, zarur bilimlar, ma'lumoti, qobiyaliyatiga ega bo'lmagan shaxslar taklif qilinadi. Aynan shu paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati natijalarida aks etadigan barcha jiddiy muammolar boshlanadi. Tadbirkorlik faoliyati rahbari bo'lgan oila a'zosining ayrim oila a'zolariga nisbatan sub'ektiv munosabatlari, boshqalarning fikri bilan hisoblashmaslik va x.k:

- Oila a'zolarining barqarorlikka intilishi, xavf-xatarga nisbatan salbiy munosabati, tadbirkorlik faoliyatiga yangiliklarga nisbatan keskin salbiy munosabtlarning bildirilishi.

- Tadbirkorlik faoliyati bevosita rahbarining boshqalar fikri bilan hisoblashmasligi, ochiq muloqotda bo'lmasligi, atrofdagilar tomonidan ishonchsizlik tuyg'usini shakllantiradi. Bunda:

- Ortiqcha jizzakilik, takabburlik ular o'rtasida salbiy munosabtlarning shakllanishiga olib keladi. Ko'pincha tadbirkorlik faoliyati a'zolarining biri boshqasidan omadliroq bo'lib ko'proq muvoffaqiyatga erishadi. Natijada turli tabiatdagi nizolarga sabab bo'lib, ajralishlar, tadbirkorlik faoliyatidan chiqib ketib, raqobatchiga aylanib qolish, sheriklarni o'z faoliyatiga jalb etish hollari paydo bo'lishi mumkin.

- Daromadni taqsimlash. Ayrim qarindoshlar o'zlarining foydalari tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini to'la qoplamaydilar yoki moddiy jihatdan ta'minlangani, kam ta'minlangan a'zolarga foydaning bir qismini yordam sifatida ajratib berishi shart deb hisoblashi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatining boshqa a'zolari bu fikrga qo'shilmasligi mumkin.

- Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan oilaviy nizolar. Oiladagi tartibsizlik, tadbirkorlik faoliyati oilada ayol kishi tomonidan yuritilayotgan bo'lsa, erkak kishining o'zining tobe inson sifatida idrok etilishi asosida nizoli vaziyatlar kengayishi mumkin. [21].

Oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi oilalarda tarbiya topayotgan o'smirlar bevosita oilaviy muxitdagi munosabatlar, nizolar psixologik ta'siri ostida voyaga yetadilar. Ulardagi qadriyatlar tizimi ehtiyojlarning shakllanishiga ham ana shu ijtimoiy vaziyatning psixologik ta'siri ulkan bo'ladi. Aynan shu bois amaliyotchi psixologlar oilaviy tadbirkorlar oilalarida voyaga yetayotgan o'smirlarning ruhiy ijtimoiy holatlarini doimiy tarzda o'rganib borishlari, ota-onalari bilan suhbatlar olib borishlari zarur. Bu borada amaliyotchi psixologlar tomonidan yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar va ziddiyatlarni o'smir ruhiyatiga salbiy psixologik ta'sir ko'rsatishdan himoyalash borasida korreksion tadbirlarning olib

borilishi, zaruriy holatlarda ushbu mashg'ulotlarda ota-onalarining ishtirokini ta'minlashda MFY faollari yordamidan foydalanishlari mumkin.

Bu borada tadbirkorlik faoliyatidagi muammolarni oilaviy munosabatlarda salbiy ta'siri ko'rsatishini oldini olish katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha tadbirkorlik faoliyati rahbari oila a'zolariga munosabatlarini ish sifatiga qarab ko'rsatadi. Oila a'zolarini rahbar sifatida olinadigan daromadga qo'shgan hissasiga qarab baholashga o'rganadi. Aynan shu holat oilada tarbiyalanayotgan o'smirlarga emotsional munosabatlarga nisbatan ehtiyojlarning frustratsiyalashuviga olib keladi. Agarda o'g'il katta bitim tuzib kelgan bo'lsa, otaning kayfiyati yaxshi, mehribon, mabodo o'g'il bitimga erishi olmasa otaning hissiyoti kayfiyati xatti-harakati bilan uni omadsiz, landavur, otaning hamma boshlagan ishini barbod qiluvchi noshudga aylanadi. Bu turdagi nizolarni bartaraf eta olish uchun ota naqafat oilaning moddiy ta'minoti ustuni balki, farzandlarining ruhiy holati, ruhiy va jismoniy salomatligi uchun ham mas'ul ekanligini o'ziga xos psixologik ustanovka sifatida idrok qilishi zarur. Eng muhimi o'smirlar ular oila uchun doimo sevimli ekanligiklarini doimo his etishlari kerak.

Oilaviy tadbirkorlik jarayonidagi turli tabiatdagi nizolarni bartaraf etish uchun bevosita ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash zarur. Amaliyotda tadbirkorlik faoliyatida kelib chiquvchi eng keng tarqalgan nizolarning aksariyati tadbirkorlik faoliyati rahbari va uning qo'l ostidagilar bilan ishning qanchalik sifatli bajarganligi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar tashkil qiladi. Bu turdagi nizolar psixologik jihatdan juda xavflidir.

Oilaviy tadbirkorlik jarayonida yuzaga keladigan har qanday nizo o'z vaqtida aniqlanishi va barataraf etilishi zarur. Ko'rinishi jihatdan arziyas bo'lgan nizolar ham o'smirlar ruhiyatiga chuqur salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Ba'zan nizoning tashqi ob'ektiv (ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan) tomoni ostiga sub'ektiv sabablar yashiringan bo'lishi mumkin. Masalan firmaning ishlab chiqarish va sotuvga rahbarlik qilgan ikki aka-uka har doim tortishsa, bir-birini tanqid qilsa, yaxshiroq yechimini taklif qilsa "Surunkali" nizolarni haqiqiy sababi o'zini boshqalardan ko'ra ahamiyatli ekanligini ko'rsatishga urinish, tadbirkorlik faoliyati

rahbari otasiga ko'proq ta'sir ko'rsatishga intilish tashkil qiladi. Bunday hollarda tadbirkorlik faoliyati rahbari bo'lgan ota ikkala farzandi bilan ham ulardan biror birini afzal ko'rishini ko'rsatmagan holda teng munosabatda bo'lishi tushuntirishi zarur. Oila muvoffaqiyati va omadsizliklari uchun hamma teng darajada mas'uliyatli ekanligini tushuntirishi kerak. Oilaviy tadbirkorlik faolyatida o'smirlar ruhiyatida emotsional taranglikni bartaraf etish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur.

- O'smirlarning kuchli tomonlari, qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanish;
- O'smirlarning tadbirkorlik faoliyatidagi intilishlarini qo'llab-quvatlash, doimiy nazoratda ushlab turishga intilmaslik;
- O'smirlarda bajarayotgan ishi uchun mas'uliyatli ekanligini ta'kidlagan holda, har doim rost gapirishga o'rgatish;
- Hato va kamchiliklarni tuzatish kelajakdagi muvofaqiyatlarga erishish uchun muhim ekanligini tushuntirish;
- Tadbirkorlik faoliyati oilaning moddiy ahvolini yuksaltirish uchun zarur bo'lgan holda, eng muhimi farzandlarning hayoti, kelajagi ekanligini ko'p bora takrorlash;
- Oilada o'smirlarning tadbirkorlikning yangi g'oyalariga o'zgarishlariga intilishini qo'llab-quvvatlash. Agar katta avlod yoshlarga yangi g'oyalarni taqdim etish imkonini bermasa o'zgarishlar to'sib qo'yilsa, olaviy tadbirkorlikning samarasi yuqori bo'lmaydi. Nizoli vaziyatlarda eng muhimi shoshilinch qarorlar chiqarishga intilmaslik, aksincha vaziyatni har tomonlama baholash tushunish zarur. Chunki nizolarni konstruktiv hal etilishi oilaning tadbirkorlik faoliyatining jipslashuviga, o'zaro ishonch va hamkorlikning ortishiga, o'zaro hakatlarning yaxshilashga olib keladi. [16, 20,21].

Agar oilaviy jamoada keskinlik mavjud bo'lsa nizoni hal etishdan qochish aslo mumkin emas. Bunday holat oila a'zolari o'rtasida kommunikativ aloqalarning buzilishiga, ishning samaradorligini pasayishiga, eng havfli tomoni shundaki, o'smirlarda ruhiy tanglik holatlarini keltirib chiqarish ehtimolini ortishiga olib keladi.

Agar oilaviy tadbirkorlikda nizolarni adolatli hal etishga erishilsa, aksari nizolarni boshidanoq bartaraf etish mumkin.

BOB BO'YICHA HULOSALAR.

Tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R.Kontilon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit va J.B.Sei asarlarida amalga oshirila boshlandi. Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi turli bozorlarda talab bilan taklif orasida muvozanat o'rnatishga doir takomillik faoliyatidan iborat deb tan olingan. Tadbirkorlikdagi muhim omil bu tadbirkorning shaxsiy xususiyatlaridir. Tadbirkorlik faoliyagini samarasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish motivatsiyasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik qobiyaliyatiga ega bo'lgan o'smirlar o'z hatti harakatlarida do'stona harakaterda, erkin va faol bo'ladilar. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yosh ko'rsatkichi alohida ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish zaruriy axborotlarni yetishmasligi bilan ham karakterlanadi. Bu sharoitda axboriy bo'shliqni to'ldirib boruvchi turli ko'rinishdagi axborotlar oqimidan muhim qarorlar qabul qilishda, ko'p hollarda, tadbirkor o'z ichki tuyg'usi "intuitsiyasi"ga ishoshiga to'g'ri kelib qolishi bilan tafsiflanadi.

Bozor iqtisodiyotining qonuniyatlaridan biri turli turdosh kasbiy faoliyatga moslashish imkonini beruvchi kasbiy egiluvchanlik va mobillik kasbiy yo'nalganlikni o'rganish ko'p jihatdan shaxs psixologiyasi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bir tomondan shaxs rivojlanishi o'smirning kasbiy tanlovi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan kasbni egallash jarayonida o'smir shaxsi xususiyatlari rivojlanadi. Oilada katta avlod vakillarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi yoki shug'ullanmasligi katta ahamiyat kasb etmasada, tadbirkorlar oilasida o'rnatilgan demokratik munosabatlar, o'smirda tashabbuskorlik, mustaqilliq, hayotga ijobiy yondoshuv tashabbuskorlik kabi tarkib topishi, g'ururi, o'zini hurmat qilish hislarining shakllakishiga sabab bo'ladi. Oilaviy tadbirkorlik jarayonida nizoli vaziyatlar tez-tez uchrab turishi ko'p hollarda iqtisodiy emotsional ijtimoiy psixologik omilarga bog'liq bo'lib, bu muammolarga ham oilaviy ham iqtisodiy muammolar qo'shilib ketadi. Qarindoshlar o'rtasidagi raqiblik shaxsiy

ehtiyojlarning to'qnashuvi tadbirkorlik faoliyatini yuritishdagi o'zaro kelishmovchiliklar asosida chuqurlashadi. Bu holat o'smirlar hissiy emotsional holatiga salbiy qilishi, ularda salbiy shaxs sifatlarini tarkib topishiga sabab bo'lishi mumkin.

2.bob. Amaliyotchi psixolog faoliyatida o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning ishlarining mazmun va mohiyati.

2.1. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning shakl va metodlari.

Kasb-hunarga yo'llash bo'yicha olib boriladigan ta'lim–tarbiyaviy ishlarining mazmun va mohiyatida o'smirlarni maqsadli ravishda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishg ishlarini amalga oshirishga alohida e'tiborni qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunar kollejlarda kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, ekskursiya konferentsiya, mustaqil fikrlar, mahalladagi tadbirkorlar bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda amaliyotchi psixologning pedagogik jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi, katta ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kollejlardagi qiziqishlar bo'yicha o'tkaziladigan xilma-xil mashg'ulotlar orasida to'garak ishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada kasbiy ta'lim o'qituvchilari rahbarligida tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlarining mazmun va mohiyati o'smirlik davri xususiyatlariga mos bo'lishi, mashg'ulotlarni olib borilishida ularning qiziqishlari, diqqat va xotira xususiyatlarini jalb etish borasida amaliyotchi psixolog maslaxati to'garak ishlarining samarsini yuksaltirishga yordam beradi.

Amaliyotchi psixolog va kollej rahbariyati o'smirlarning individual qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina o'smirlarning kasbiy tayyorgarligi samarali amalga oshadi.

Kuzatish-psixologiyada shaxsni o'rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Kuzatish natijalari o'smirning guruh murabbiyi, amaliyotchi psixologi hamda kasbiy ta'lim va fan o'qituvchilari tomonidan olib borilishi va umulashtirilishi asosida hulosasi chiqariladi.

O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda yakka tartibda yoki jamoa tarzida diagnostik suhbatlar o'tkazish ham qo'llaniladi. Bunday suhbatlar jarayonida o'smirlar faoliyati natijalarini tahlil qilish samarali natijalarga erishish imkonini beradi. O'smirlarning hujjatlarini va amaliy ish - harakatlarini tahlil qilish ham o'smir shaxsini o'rganishda amaliyotchi psixologa yordam berishi mumkin. O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarni bartaraf etishi mumkin va h.k.

Ba'zi o'smirlarda tadbirkorlik faoliyatiga moyillik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik o'smirlarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. Amaliyotchi psixolog bu borada o'qituvchiga o'smirdagi ma'lum bir faoliyat turi bo'yicha iste'dod nishonlarini aniqlashi, bularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashishi muhimdir.

O'smirlarda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish jamiyat uchun zarur bo'lgan, har bir o'smirning shaxs psixologik individual xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnat faoliyatiga qiziqishning mavjudligi tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Bu borada ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko'p jihatdan yordam beradi. Amaliyotchi psixolog faoliyatining o'smirlar qiziqishlari diagnostikasi natijalari bilan pedagogik jamoa

guruh murabbiylarini doimiy tarzda olib boriladigan tashviqot-targ'ibot ishlarida aynan ushbu xususiyatga alohida e'tibor qaratilishi muhim.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'smirlar tomonidan tanlangan kasbni targ'ib qilish, ya'ni ushbu hudud uchun zarur bo'lgan kasblar: Tadbirkorlik faoliyatini olib borilishi imkoniyatlari bilan tanishtirish, ularda yana shu kasblarga nisbatan hurmat-ehtiromni tarbiyalash, tadbirkorlik faoliyatini olib borilish vaziyatlari va imkoniyatlarini ochib berish lozim. Bu borada darslardan tashqari o'quv dasturida ko'zda tutilgan tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga qilinadigan ekskursiyalar o'smirlarda, jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlarga islohotlarga nisbatan faol munosabatni shakllantiradi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlariga kompleks yondoshish o'smirlar bilan ishlashning to'g'ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beruvchi o'smir shaxsini har tomonlama o'rganishni ham ko'zda tutadi:

- kasbga oid bilimlar;
- o'quvchilarni mehnat faoliyati sohalari, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish;
- psixologik-pedagogik maslahat;
- mehnat faoliyatining turlari to'g'risida, o'quvchi hislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o'quvchiga gapirib berish;
- kasb tarbiyasi;
- o'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishlarini shakllantirish;
- amaliy kasbiy ko'nikish;
- mehnat faoliyatining turli sohalarida kuchlarni amaliy jihatdan sinab ko'rish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchining shaxsini o'rganish, mehnatga bo'lgan qiziqishlarni va kasbga qiziqishlarni shakllantirish kabi yo'nalishlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Kasbiy ta'lim o'qituvchisining kasbga yo'naltirish ishi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarning butun bir kompleksi bilan, shu jumladan, kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet faoliyati, sinf rahbarining, fan o'qituvchilarining ishi, ota-onalar va shu kabilar bilan mahkam bog'langandir. Kasbiy ta'lim o'qituvchisi bular bilan yaqindan aloqa bog'lamay turib samarali ishlashi mumkin emas.

Kasbiy ta'lim darslarida kasbga yo'naltirish ishini olib borgan o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ham hisobga olish lozim. Kasb- hunar kollejidagi har bir o'quv fani o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni amalga oshirishdagi o'ziga xos imkoniyatlariga ega, lekin u kasb turlari, kasblarning xilma-xilligi va shu kabilar to'g'risida o'quvchilar bilimlarini shakllantirishning birdan bir manbai bo'lishi mumkin emas. SHu sababdan ham kasbga yo'naltirish ishida kasbiy ta'lim o'qituvchisi faoliyatini guruh murabbiylari va fan o'qituvchilari ishi bilan muvofiqlashtirish g'oyat muhimdir. [10, 13,18].

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish uchun:

- fan asoslarini o'qitishning, kasbiy ta'limining va fakultativ mashg'ulotlarning fanlararo aloqalarini, davomiyligini, politexnik va kasbga yo'naltirish yo'nalishini ro'yobga chiqarish;

- politexnik ma'lumot, kasbiy ta'lim va kasbga yo'naltirishning o'quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnati bilann o'zaro aloqasini ta'minlash;

- o'smirlarni bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarni bajarishlari;

- xalq xo'jaligining turli sohalarida o'smirlarning qiziqishini rivojlantirishga shaxsiy, tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;

- o'smirlarni kasbga yo'naltirish sohasida kasb-hunar kollejlari pedagogik jamoasini bilan ushbu kollejdagi kasbiy tayyorgarlik olib boruvchi faoliyat sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi tadbirkorlarning birgalikda ish ko'rishi;

- sanoat qishloq xo'jalik kasblarini targ'ib qilish lozim.

Tabiiy-matematik turkum fanlarni o'rgangan chog'da o'quvchilar konkret iqtisodiy hududdagi yetakchi kasblar bo'yicha mehnat mazmuni bilan tanishish, ana shu kasblarni muvoffaqiyatli egallash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni olish imkoniyatiga egadirlar.

Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi shakllarini bir qancha belgilarga qarab quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

I. O'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashadigan o'quvchilar soni qarab:

Bir necha parallel guruhlar qatnashadigan tadbirlar.

Yakka-yakka o'quvchilar qatnashadigan tadbir.

II. Tashkil etish usullariga qarab:

Yalpi tadbirlar-lektsiyalar, yig'ilishlar, konferentsiyalar, olimpiadalar, kinofilmlarni ko'rish, tematik kechalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan o'tkaziladigan uchrashuv kechalari, kasb bo'yicha kalendar kunlarini tashkil qilishdan iborat.

Guruhiy tadbirlar - ekskursiyalar, maslahatlar, kasblar bo'yicha tanlovlar, yosh texniklarning musobaqalari, korxonalar va yetakchi kasblar bilan tanishish maqsadida jonajon o'lka bo'ylab sayyohlik yurishlari.

Yakka-yakka o'tkaziladigan tadbirlar - kasb haqida maslahat beriladigan suhbatlar, kasb to'g'risida tavsiya etilgan kitoblarni o'qish, uchrashuvlar, konstruktorlik, tajriba ishi yuzasidan yakka tartibda beriladigan topshiriqlar, o'quvchini qiziqtiradigan fan va texnika sohasini chuqurlashtirish va rivojlantirish maqsadida qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.

- Mazmun manbalariga qarab;

- Kasblarlarning tadbirkorlik faoliyatini yuritish imkoniyatlari bilan tanishtirish, sayohatlar;

- Tadbirkorlar, menedjerlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar,

- O'qituvchining hikoyasi yoki suhbat, kinolardan lavhalar, fotosuratlar, jurnal va gazetalardan olingan maxsus materiallarni namoyish qilish uchun proeksion apparatlardan foydalanish;

- Taklif qilingan tadbirkor suhbat;

- Tadbirkorlik yo'nalishlari haqida ma'lumotnomalar bilan tanishish;
- Tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish tadbirlarini ro'yobga chiqarish vositalari bo'yicha; [16, 171].
- "Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qaysi ta'lim muassasasida tahsil olish kerak" ma'lumotnomasining nashr etish, reklama varaqalari;
- Mazkur iqtisodiy mintaqada mavjud tadbirkorlik yo'nalishlari qisqacha tavsiflari bo'lgan to'plamlar;
- "Men tadbirkorlikni qanda boshladim", "Tadbirkor jamiyat rivojlanishi omili", "Tadbirkorlik mashaqqatli mehnat maxsuli" mavzularidagi kinofilmlar;
- Reklama qilinadigan televizion filmlar, tadbirkorlik ob'ektlaridan olingan televizion reportajlar;
- Radioeshitirishlar, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan turg'un motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Kasb-hunar kollejlari tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlari quyidagicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bular: Xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan umumiy tanishtirish;

- ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va iqtisodiyotini umuman o'rganish;
- tadbirkorlik sohalari asosiy guruhlar bilan tanishtirish;

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish asosiy printsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) Tadbirkorlik faoliti yo'naltirish har tomonlama kamol topgan, faol shaxsni shakllantirishga qaratiladi va ta'lim-tarbiya jarayonining rejali ravishda amalga oshiriladigan uzviy qismi sifatida amalga oshiriladi;

b) Ijtimoiy ishlab chiqarishning haqiqiy talabi asosida tadbirkorlik sohasini tanlashning shaxsiy va ijtimoiy muammosini to'g'ri hal qilish;

v) Tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning og'zaki metodlarini atrof-tevarakdagi korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi kasblari asoslarini egallash borasidagi konkret amaliy harakatlar bilan qo'shib olib borish;

g) Kasb-hunar kollejlardagi barcha umuta'lim va kasbiy ta'lim fanlarini o'qitishda tanlangan kasbga oid bilimlar va ushbu kasblarni egallash jarayonida tadbirkorlik faoliyatini yuritish imkoniyatlari bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish; [16, 20,21].

Bundan tashqari, bank tizimi manfaatdor jamoatchilik tashkilotlari bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga rag'batlantirish uchun mamlakat ko'lamida "Mening biznes g'oyam" va "Yosh tadbirkor – yurtga madadkor" loyihalari amalga oshirilishi, shuningdek, banklar "Vatanim taraqqiyotiga mening hissam" shiori ostida yosh tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rgazmasini tashkil etishga samarali yordam ko'rsatadi hamda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasining "Diplom bilan biznesga", "Ishbilarmon talaba" loyihalari ham kasb-hunar kolleji talabalarini o'zining xususiy bezneslarini yo'lga qoyishda banklar tomonidan imtiyozli kreditlar olishda dastur amal bo'lib xizmat qilmoqda. 2013 yil xolatiga Andijon viloyatida 155 nafar kollej talabalarini imtiyozli kreditlar olib tadbirkorlik faoliyatini boshlaganlar. 2014 yil holatiga esa 300 nafardan ortiq kollej talabalarini ushbu loyihalar bo'yicha imtiyozli kredit olishi ko'zda tutilgan.

2.2. Qiziqtirish -tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish jarayonida muhim psixologik xususiyat sifatida.

Qiziqish (motiv) -bu insonni muayyan faoliyatga undovchi ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlardir. Qiziqish insonga uning ehtiyojlarini qondirish uchun nima qilish va buni qanday qilish kerakligini belgilaydi.

Qiziqish jarayonini to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

1. Ehtiyojning paydo bo'lishi.
2. Ehtiyojni qondirish yo'llarini izlash.
3. Ehtiyojni qondirish uchun faoliyatga kirishish.
4. Ehtiyojning qondirilishi, moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirishga ega bo'lish.

Ehtiyoj - insonning hayot kechirishi, shaxs va ijtimoiy guruhni rivojlantirish uchun ob'ektiv zarur narsalar. Biologik va ijtimoiy ehtiyoj bir-biridan farq qiladi.

Biologik ehtiyoj-suv, xavo, oziq-ovqatga, hayot kechirish uchun zarur boshqa narsalar uy-joy, kiyim-kechak, pyzg'op buyumlari, shuningdek, avlodni davom ettirishga ehtiyoj.

Ijtimoiy ehtiyoj-millat, ijtimoiy guruhga mansublikka, o'z shaxsini, erishgan muvaffaqiyatlarini rivojlantirish, o'z qobiliyatini namoyon etish, boshqalar tomonidan o'sish qobiliyatlari e'tirof etilishiga ehtiyojdir. [28].

Shaxs-individga jamiyat a'zosi sifatida tavsif beruvchi ijtimoiy muhim xususiyatlarning barqaror tizimidir. Ayni paytda shaxs bilan birga insoniyat avlodiga mansub alohida vakil-individ hamda ushbu individni boshqalardan farqlovchi xususiyatlar yig'indisi-individuallik tushunchalari ham mavjuddir.

Qiziqtirish (motivatsiya) tushunchasi fanda bir necha ma'noga ega. Boshqaruv nazariyasida bu o'zini va boshqalarni korxona maqsadiga erishishga qaratilgan muayyan faoliyatga qiziqtirish jarayonidir. Qiziqtirishning boshqaruvdagi hamda shaxsiy-psixologik mazmuni o'zaro bog'liqligi personalni boshqarishda texnika tizimlarini boshqarishdan farqli o'laroq, boshqaruv ob'ekti va sub'ekti maqsadlarining muvofiqlashtirilishi bilan belgilanadi. Bunday muvofiqlashtirish turlicha tarzda amalga oshirilishi mumkin. Lekin bu jarayonda

albatta ikki tomon-ob'ekt ham, sub'ekt ham ishtirok etadi. Buning natijasida esa boshqaruv ob'ektlarining muayyan mehnat faoliyati, pirovard natijada bu faoliyatning muayyan natijasi bo'ladi. [28].

Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqtirish jarayoni negizida qiziqishning moddiy, ijtimoiy psixologik, ma'naviy, ijodiy va boshqa omillari yotadi.

Ehtiyojlarni ushlab ko'rish yoki o'lchash mumkin emas. Ular to'g'risida insonlarning xatti-harakatlari orqali tasavvur xosil qilish mumkin. Ehtiyojlar faoliyat uchun qiziqish uyg'otadi.

Rag'batlantirish-inson o'zi uchun qimmatli hisoblagan hamma narsa muhim hisoblanadi. Insonlarda qimmatlilik tushunchasi turlicha, shuning uchun rag'batlantirishni baholash ham ularda bir-birlarinikidan farqlanadi. Rag'batlantirishning ikki turi mavjud:

Ichki rag'batlantirishni faoliyatning qiziqirliliga, zarurligiga, o'smir qobiliyatlariga mosligi tashkil qiladi. Bunda faoliyat jarayonidan qoniqish xosil qilish hissi, ko'zlangan natija yoki maqsadga erishish, tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglash va shu asosda o'z-o'zidan g'ururlanish kiradi. Tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida o'smir o'z ehtiyojini tengdoshlari, katta yoshdagi tadbirkorlar bilan munosabatda bo'lish orqali qondiradi.

Tashqi rag'batlantirish pedagoglar, ota-onalar, katta yoshdagi tadbirkorlar tomonidan beriladi. Ular tomonidan bildiriladigan maqtovlar va e'tiroflar, ma'lum bir moddiy foyda olish imkoniyati, mukofotlar-shular sirasiga kiradi. . [11,13,20].

A.Maslou nazariyasi qiziqtirishning eng mashxur nazariyasi hisoblanadi. Bu nazariyaga binoan insonlar hamisha qandaydir narsaga ehtiyoj sezadilar. Ehtiyojlar birlamchi va ikqilamchi, besh darajali bo'ladi. Bu ehtiyoj darajalari ustuvorligi bo'yicha bosqichma-bosqich joylashadi. [28].



А. Маслоу бўйича эҳтиёж даражалари пирамидаси.

Ehtiyojlar qondirilmagan bo'lsa insonni faoliyatga undaydi. Qondirilgan ehtiyojlar insonlarda qiziqishni so'ndiradi. Birorta ehtiyoj qondirilgan bo'lsa, uning o'rnini boshqa ehtiyoj egallaydi. Odatda inson birdaniga bir necha narsaga ehtiyoj sezadi. Piramidaning pastki qismidagi ehtiyoj birinchi navbatda qondirilishi talab etiladi. Quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilgandan so'ng yuqori darajadagi ehtiyojlar insonga kuchliroq ta'sir ko'rsata boshlaydi. Yuqori darajadagi ehtiyojlarni quyi darajadagi ehtiyojlarga qaraganda ko'proq vositalar orqali qondirish mumkin.

D. Mak-Klelland nazariyasi insonning uch ehtiyojiga asoslangan: Maqsadga erishish ehtiyoji. Bu insonning o'z oldida turgan maqsadga avvaldagiga qaraganda samaraliroq erishishga intilishini anglatadi.

SHeriklik ehtiyoji insonning atrofdagilar bilan do'stona munosabatda bo'lishga intilishida namoyon bo'ladi.

Xokimiyatga ehtiyoj insonlarning jamoaga rahbarlik qilish, resurslarni taqsimlash va xukmronlik qilishning boshqa vositalariga intilishlarida seziladi.

Yuqoridagi nazariyaning asosiy mohiyati quyidagichadir:

D.Mak-Klellandning ehtiyojlar nazariyasida ko'rsatilgan xokimiyatga ehtiyoj boshqa insonlarga ta'sir ko'rsatish xoxishi sifatida namoyon bo'ladi. SHu ma'noda boshqaruv xokimiyatidan foydalanish, bunday ehtiyoj sezayotgan

insonlarning o'z maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlari bilan jalb etadi. Bu toifa insonlar shijoatli, irodali, qat'iyatli shaxslar bo'lib, ular o'z nuqtai nazarlarini qattiq turib himoya qiladilar, o'zgacha fikrlarga qarshilik ko'rsatadilar. Ular ko'p hollarda yaxshi notiq bo'lib, boshqalarni o'ziga jalb eta oladilar. [13,14,28].

Maqsadga erishish ehtiyoji esa ko'zlangan, rejalangan narsaga erishish jarayoni orqali qondiriladi. Ya'ni bunga ehtiyoj sezuvchilar faqat muayyan lavozimni egallash (bu kuo'p hollarda ro'y bersa ham) bilan qanoatlanib qola olmaydilar. Ana shunday shaxslar tavakkalchilikni extiyotkorlik bilan qiladilar. Ular muammoni xal qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishdan cho'chimaydilar. Ayni vaqtda bu insonlar erishgan natijalari uchun aniq rag'batlantirishni xoxlaydilar. Ular ishda tashabbuskorlar. Bu shaxslar erishilgan natijalariga qarab muntazam taqdirlanib turilishlari kerak.

Sheriklik ehtiyoji hamkasblar, jamoa a'zolari bilan do'stona munosabatlar o'rnatishda, boshqalarga yordam ko'rsatishni yoqtirishda namoyon bo'ladi. Bu toifa kishilar doimiy muloqotda bo'lish imkoniyatini beradigan ishlarni xush ko'radilar. Rahbarlar bunday shaxslarga ko'proq e'tibor qaratishlari, jamoada do'stona munosabat o'rnatish, o'zaro fikr almashib turish uchun ularni tez-tez birga yig'ib turishlari lozim.

Inson qobiliyati uning jismoniy va bilim imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu imkoniyatlar bilan birga mehnat sharoiti, hamda ishlashga tayyorgarlik ham samaradorlikni ta'minlaydi. Ishlashga tayyorlik esa shaxsning ishga qiziqishi va undan qanoatlanishi, ehtiyojlari, mehnat natijalariga muvofiq rag'batlantirilishi bilan belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga qizqishni tahlil etishda qiziqtirish omillari — ehtiyoj, qiziqish sabablari (motivlari) va rag'batiga alohida e'tibor qaratish lozim. SHaxs uchun biror narsa yetishmasa, u shu ehtiyojni qondirishga qaratilgan aniq maqsadli harakatlar qiladi. SHuning uchun ehtiyojlar insonni faollashtiruvchi manba vazifasini o'taydi. Ehtiyojlarni faqat maqsadga erishish orqali qondirish mumkin.

Qiziqish sabablari (motivlari)ga insonni biror narsa yoki muayyan tarzda o'zini tutishga da'vat qiluvchi ichki kuch sifatida qaraladi. Xozirgi davrda insonning

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga qiziqishi sabablari ancha murakkab, odatda ularni tushunib yetish. qiyin, demakki bu qiziqishga ta'sir o'tkazish ham oson emas. O'smir qiziqishi tarkibiga uning xatti-harakatlari asosi, deb qarash mumkin. Bu tarkib muayyan barqarorlikka ega. SHunga qaramasdan, o'smir shaxsi shaklanishi jarayonida ta'lim saviyasi oshishi bilan qiziqish tarkibi ham o'zgarib boradi.

O'smir qiziqishlar tadbirkorlik faoliyatini muvoffaqiyatli yuritish uchun kerak bo'lgan ishga to'la-to'kis mos bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, o'smirni tadbirkorlik faoliyatini yuritishga yo'naltirishda qilishga quyidagi asosiy qiziqishlar undaydi:

- kasbga qiziqish;
- iloji boricha ko'proq moddiy rag'bat olishga intilish;
- o'smir bajarayotgan ishining uni bu ish moddiy jihatdan ahamiyatli ekanligi anglashi muhimdir.

Rag'bat insonga uning mehnat faoliyati natijalarini munosib, baholash sifatida taklif etiladi. Inson ko'pgina rag'batlarni ularning mohiyatini anglab yetmasdan, ya'ni beihtiyor qabul qiladi. Turli insonlarda aniq rag'batlarga munosabat bir xil emas.

Ko'pgina tadqiqotlarda rag'batlar faoliyat uchun tashqi da'vat, qiziqish sabablari esa ichki da'vat deb ta'riflanadi. SHunday ekan rag'bat va qiziqish sabablarini, eng avvalo, ularning insonni faoliyat ko'rsatishiga undashi birlashtirib turadi. Biroq agar rag'bat manfaat (moddiy, ma'naviy, guruhiy, shaxsiy) orqali faoliyat ko'rsatishga undasa, qiziqish asosida esa ham manfaat (mukofotlash, lavozimda ko'tarilish), ham shaxsiy sabab (burch, qo'rqish, mas'uliyat hissi va xokazolar) yotadi. SHuning uchun qiziqish sabablari (motiv) rag'batga nisbatan kengroq ma'noga ega.

Rag'batlantirish chora-tadbirlari muayyan shaxslar ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi darkor. O'smirning ma'lum bir faoliyat turiga qiziqishini tegishli rag'batlantirish usuli orqali o'zgartirish mumkin. Pedagoglar va psixologlar

uchun bu rag'batlantirishlar bir xil shaklda emas, balki o'smirlarning shaxsiy ehtiyojlariga muvofiq ishlatilishi kerak, degan ma'noni anglatadi.

Inson oldida turgan vaziyatga duch kelar ekan uni xal etish uchun o'zini-o'zi qiziqtirishi mumkin. Bu insonning o'zida uning irodasi bilan paydo bo'ladi. Ana shu qiziqish muvaffaqiyatga erishishga, ishni oxiriga yetkazishga, bilimni egallashga, manfaatga intilish va xokazolar bo'lishi mumkin. SHu bilan birga qiziqishni tashqi muxit, jumladan bevosita rahbar rag'batlar orqali uyg'otishi mumkin. O'smirni rag'batlar orqali vazifani xal etishta undash ekstravert qiziqtirish, deb nomlanadi.

Maqsadlarni o'smirlar uchun tushunarli holda yetkazish, ularda ushbu maqsadlarga erishishda o'zlarining rolini anglab yetishlari, o'z kuch-g'ayratlarini berilgan vazifalarni bajarishga yo'naltirish, topshiriq bilan maqsad o'rtasidagi bog'liqlikni anglab yetishdan iborat personalning o'z-o'zini qiziqtirishlarini ta'minlash yuqori bo'g'in rahbariyatining birinchi darajali vazifasi, deb hisoblanadi.

Qiziqish tarkibini tushunish o'qituvchilarga o'smirlarning qaysi birlarini maqsadga erishish uchun o'z-o'zlarini qiziqтира olishlari, qaysilari uchun esa psixologik pedagogik tashqi ta'sir talab qilinishini farqlay olishlariga imkon beradi.

Amalda ichki-introvert va tashqi-ekstrovert qiziqtirishlar o'rtasida aniq chegara bo'lmaydi. Ba'zi hollarda ichki, boshqa hollarda tashqi, yana bir vaziyatda har ikki tur qiziqtirishga duch kelinadi. [13,28].

1. Bevosita qiziqtirish. Bu o'smir shaxsiga va uning qadriyatlar tizimiga ishontirish, ta'sir ko'rsatishni anglatadi. Bevosita qiziqtirishning tashviqot, ibratni namoyish qilish, xabardor qilish va boshqa shakllari ham mavjuddir. Bevosita qiziqtirish yangiliklarni joriy etishdan manfaatdor o'smir shaxsini bevosita shakllantirishga yordam beradi .

Ammo bevosita qiziqtirish kamchiliklardan ham holi emas. Bu o'smirlar bilan yakkama-yakka ish olib borish, ular ichki dunyosiga kirish, ko'zlangan maqsadlarni chuqur asoslab berishni talab qiladi. Bunday ish olib borish uchun o'qituvchi ishontirish, extirosli ta'sir ko'rsatish, shaxsan o'zi na'muna ko'rsata olish qobiliyatlariga ega bo'lishi darkor.

2. Majburiy qiziqtirish. Bu ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talablar o'smir tomonidan bajarilmagan taqdirda o'smirning qaysidir ehtiyojlarini qondirish yomonlashishi taxdidiga asoslangandir.

3. Bilvosita rag'batlantirish usuli. Bu usulda qiziqtirishni shakllantirish o'smirlarga o'zi uchun qadrlidi deb hisoblagan narsani tanlash xuquqi berilishi nazarda tutiladi. Faoliyatning turli sohalarida insonga o'zini qanday tutish lozimligi bo'yicha to'g'ri qaror qabul yordam beradi.

Inson faoliyati hamisha aniq, mavjud ehtiyojlar bilan bog'liq. Odamlar nimalargadir erishishga, nimalardandir esa o'zlarini olibqochishga harakat qiladilar. Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish (motiv)ning quyidagi asosiy turlari farqlanadi:

1. Guruhda (jamoada) bo'lish motivi. Ushbu qiziqish ayniqsa personalni boshqarishning sharqiy (yaponcha) usuliga xos: guruhiiy ahloq shaxsiy musobaqa mavjud emasligi, korporativ madaniyat va xokazolar. Ko'pgina sotsiologlar fikricha, axil jamoada mehnat qilish, xodimni ishga qiziqtirishning eng jozibali turi hisoblanadi.

2. SHaxsiy o'zligini namoyon qilish motivi. Bu ko'pgina xodimlarga, ayniqsa yosh va yetuk yoshdagi xodimlarga xos.

3. Mustaqillik motivi. Bu "xo'jayinlik" his-tuyg'usi kuchli bo'lgan xodimlarga xosdir. Mazkur insonlar "xo'jayinlik" qilish va tadbirkorlikni mustaqil olib borish uchun barqarorlikni qurbon qilishlari va yuqoriroq ish haqidani voz kechishlari mumkin. Ular- ishbilarmonlar tavakkalchilik qilib, o'zlarining barqaror ish joylari, yuqori miqdordagi maoshdan voz kechib mustaqil ish boshlagan.

4. Ishonchlilik (barqarorlik) motivi. Mohiyat jihatidan bu mustaqillik motivining aksidir. Bu holda faoliyatning va turmushning barqarorligi tadbirkorlikdagi tavakkalchilikdan afzal ko'riladi.

5. Yangilikka (bilimlar, buyumlarga) ega bo'lish motivi. Bu bozor menejmenti, eng avvalo marketingning ko'pgina xususiyatlari negizini tashkil etadi. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda moddiy buyumlar dunyosini yaratish uchun xuddi shu qiziqishdan foydalanadilar.

6. Adolatlilik motivi insoniyat butun taraqqiyoti davomida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Har bir jamiyatda adolat tushunchasio'ziga xos mezonlarga ega bo'ladi. Adolat tamoyiliga amal qilmaslik xodimlar qiziqishini so'ndiradi, xatto o'ta jiddiy ijtimoiy muammolarga sabab bo'ladi. SHuning uchun O'zbekistonda hayotning boshqa sohalarida, xususan ishlab chiqarishda ham adolat tamoyiliga amal etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

7. Musobaqalashish motivi har bir insonga xos xususiyat. Bu holda kam harajat bilan yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Musobaqalashish motivi korxonada musobaqa tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bunda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- Musobaqalashuvchilarni sharoitlari, ishlab chiqarish xususiyatlari yaqin bo'lgan guruhlar bo'yicha tabaqalashtirish;
- Ko'rsatkichlarning bir xil bo'lishi;
- G'oliblarni tabaqalashtirgan holda taqdirlash;
- G'oliblik o'rinlarini egallaganlarning ish haqi kamida uchdan bir baravarga ko'payishi kerak. [17,20,21,28].

Qiziqtirishda inson manfaati hamisha hisobga olinadi: psixologiyaga oid adabiyotda qiziqish va manfaatga bir tushuncha sifatida qaraladi. Iqtisodiyotda esa manfaat iqtisodiy sub'ektlar xatti-harakatlarining manfaatdorligini, qiziqishini rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish usullarini qo'shib olib borish. Rag'batlantirishning bu ikki turi ham katta ta'sir kuchiga ega. Ularni qo'llashda iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, an'analar, o'smirning moddiy ahvoli, yoshi va jinsi hisobga olinishi lozim. O'smirlar uchun moddiy rag'batlantirish samaraliroqdir.

Biroq bu ma'naviy rag'batlantirishni qo'llash samarali emas, degan ma'noni keltirib chiqarmaydi. Rag'batlantirish omillari va turlariga yetarlicha e'tibor bermaslik yoki ortiqcha baho berish o'smir shaaaxsi shakllanishid, tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini olib borishda salbiy ta'sir etishi mumkin.

BOB BO'YICHA HULOSALAR

“Kasb-hunar kollejlarda kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, ekskursiya konferentsiya, mustaqil fikrlar, mahalladagi tadbirkorlar bilan uchrashuvlar , ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda amaliyotchi psixologning o'qituvchilar. Pedagogik jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi , katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy tayyorgarlia jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishiga kompleks yondashish o'smirlarni har tomonlama o'rganishni ham ko'zda tutadi O'smirlarda kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish oshirish bevosita va bilvosita o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga qiziqtirish bilan bog'liq.

Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqtirish jarayoni negizida qiziqishning moddiy, ijtimoiy-psixologik, ma'naviy, ijodiy va boshqa omillari yotadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishni tahlil etishda qiziqtirish omillari-ehtiyoj, qiziqish sabablari (motivlari) va rag'batiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Pedagoglar va psixologlar rag'batlantirish usulidan bir xil shaklda emas, balki o'smirlarning individual tipologik xususiyatlari hamda shaxsiy ehtiyojlariga muvofiq qo'llanilishi kerak.

3.bob. O'smirlarda tadbirkorlik faoliyatini muvoffaqiyatli yuritish uchun kerakli shaxs psixologik tuzilmalarini shakllantirishning psixologik diagnostikasi va psixologik korrektsiyasi

3.1. O'smirlar kasbiy tayyorgarligi jarayonidagi tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish xususiyatlari.

O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish maqsadida o'tkaziladigan psixologik korrektsiya tadbirlari asosini psixologik diagnostika natijasi va tarbiyaviy yondoshishning o'zaro aloqadorligi tashkil etadi. Bu tamoyil bir yondoshuvning ikkinchi yondoshuvga qarama-qarshi qo'yilishini bartaraf etadi;

-O'smirlarga individual va tabaqalashtirilgan yondoshuv ularning o'zlashtirish darajasi, yoshi, kasbiy qiziqishi, shakllanganlik darajalari, hayotiy rejalariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bir guruhda samarali bo'lgan vosita ikkinchi guruh uchun samarasiz bo'lishi mumkin. O'quvchilarni tabaqalashtirib, guruhlarga ajratish ta'sir etish vositalarini tartibga soladi. Tabaqalashtirish, o'z navbatida, individual yondoshishga sharoit yaratib beradi;

- Tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarining o'smirlar bilan ommaviy, guruhiy va yakka tartibdagi shakllari o'quvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishini, an'anaviy, ommaviy shakldan iloji boricha qochib, ish olib borishning hamma shakllaridan foydalanishni ko'zda tutadi;

- Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining mazmuni, shakl va metodlari shaxsning kasbiy rivoji va, ayni bir paytda, mahalliy hududning kadrlarlarga bo'lgan ehtiyojiga mos bo'lishini nazarda tutadi.

Amaliyotchi psixologning o'smirlarda tadbirkorlik qobiliyatlarining psixologik diagnostikasini o'tkazilishi jarayonida ulardagi quyidagi ruhiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq: [10,14].

Nutk va tafakkur sifatlari - kuchli xotira, doimiy diqqat, soglom akl, fikr kengligi, chuqurligi, tezligi, muammo mohiyatini tez anglab olish, ijodiylik,

ma'naviy kizikishlarning har tomonlamaliligi, fikrni ogzaki va yozma shaklda qisqa, tushunarli aniq tarzda ifodalash.

Harakter sifatlari - maksadga intiluvchanlik, dalillik, mardlik, ishonch, o'zini tuta bilish, o'zi va boshqalarni buysuntira olish va tavakkal qilish kobilyati, qiyin vaziyatlarda ham muloxazakor bo'lish kobilyati, xazil-mutoiba tuyg'usi bo'lishi.

His - tuygu sifatlari - his-tuygularni turgunligi, aniqligi, ifodaliligi, kuchli xayajonli holatlarda tugri harakatlar qilish kobilyati, mulokatga kirishganda boshqalar kayfiyatini his-tuygularini hisobga olish, uz his-xayajonlari va kayfiyatlarni boshqara olish. Xulk-atvor sifatlari - harakatga intilish va uni himoya etish, samimiylik, xalollik.

Ma'lumki, kasbiy faoliyat samaradorligining asosiy shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Mashhur rus psixologi I.K. Platonovning fikriga ko'ra, kasbiy tayyorgarlik – bu o'zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir. Amaliyotchi psixolog faoliyatining kasbiy tayyorgarligi jarayonidagi tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish xususiyatlarining psixologik diagnostikasi o'ziga xos murakkab va tizimli jarayon hisoblanib, bunda:

- O'smir shaxsining mavjud kasbiy tasavvurlari tizimi, kasbiy yo'nalganligi;
- O'smir shaxsining jismoniy, psixologik va ma'naviy tayyorgarlik darajasining kasbiy faoliyat talablari bilan muttanosibli;
- O'smir tomonidan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilish darajasi;
- O'smir shaxsidagi zaruriy kasbiy sifatlarning qaror topganligi muhim omillar aniqlanadi.

Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, psixologik tadqiqotlarda kasbiy tayyorgarlik tushunchasiga nisbatan quyidagicha ta'rif berildi: kasbiy tayyorgarlik-maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasidir.

Kasbiy tayyorgarlik negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, xulq-atvor me'yorlariga amal qilish layoqati, mehnat tajribasi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar yaxlit majmua ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu esa, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mazmunini belgilab beradi.

Psixologik korrektsiya jarayonida quyidagi o'smir shaxsining ruhiy-ahloqiy ma'naviy sifatlarilarigni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi:

1. Mehnatsevarlik, odamlarga nisbatan dustlik, insonparvarlik, samimiylik, xalollik, vijdonlik, sabr-matонат, holislik.
2. Tartiblilik va intizomlilik, o'ziga va boshqalarga talabchanlik, uzgalar fikrini tushunish va hisobga olish.
3. Intiluvchanlik
4. Soha va kasb sirlarini yaxshi bilish, yuqori o'quv va malaka, yangi texnologiya talablariga mos bilimi va tajriba, ishlab chikarish texnika va texnologichsini chuqur bilish, boshqarish usullarini yaxshi uzlashtirgan bo'lishi, uz bilimi, malakasi kunikmalarini oshirib borish, axborat ayriboshlashni bilish va xokazo.
5. Tashki kurinishiga e'tiborli bo'lish- toza ozodalik, tartiblilik, ziyolilik, kiyim-kechakda, xulk-atvorda nafosatlilik, saranjon-sarishtalik va boshqalar.

Mana shu xususiyatlarni o'z faoliyatida namoyon qilgan o'smirlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini muvofaqiyatli yuritishga tayyor bo'ladilar. Zero, bozor munosabatlari mehnat jiddiy asoslarda texnologik jarayonlar bilan kushibolib borishni, tezkorlikni, malaka va ukuvni, kasb-hunarni yaxshi egallashni taqozo qiladi.

Ishlab chikarish, savdo-tijorat, xizmat idoralari, xalq xo'jaligining barcha tarmoklari tadbirkorlari xorijliklar bilan hamkorlik qilish, shartnomalar va bitimlar tuzim, muzokaralar olib borish ukuvini namoyon etishlari ham bozor munosabatlari talabidir.

O'smirlar faollik, onglilik, ijodkorlik, intizomlilik, uz-uzini tarbiyalab borish sifatlarini karor toptirsalargina tanlagan faolyaitlari jabxasida muvofaqiyat

qozonadilar. Tadbirkor shaxsining mehnat jamoalarini uyushishi, jipslashishi va rivojlanishining ruhiy- psixologik jarayonlari boskichlarini hisobga olishi kerak. Aynan shu bis o'smirlar jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni o'rganib borish, tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarda begonalashuv holati aniqlangan o'smirlarning ijtimoiy faolligni oshirish borasida korrektsion tadbirlar amaliyotchi psixolog faoliyatining maxim vazifalaridan biri sanaladi. Bu borada shaxsiy ehtiyojlarni qondirishdagi faoliyat ularni jipslashtiradi, tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantiradi. Ushbu korrektsion tadbirlar o'smirlik davridagi ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya holatlarini oldini olish va bartaraf etish imkonini beradi. Bu boradi o'smirning uz kizikishlari va intilishlarini jamoa hayoti bilan bog'laydi. Atrofdagilarga ishonchi ortadi, dustlik va muxabbat rishtalari mustaxkamlanadi.

O'yin texnologiyalari o'zida rol va ishbilarmonlik o'yinlarini aks ettiradi. Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari, xususan, rol o'yinlardan foydalanish ta'lim oluvchilarda mavud nazariy bilimlarga asoslangan holda amaliy ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam beradi.

O'smirlarning, tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda rol o'yinlardan foydalanishda muayyan shartlarga amal qilishni talab etadi. Ular quyidagi shartlardir:

- 1) O'smirlarni o'yin mohiyati va shartlari bilan tanishtirish;
- 2) O'smir shaxsining psixologik xususiyatlari imkoniyatlari va tadbirkorlik layoqatlarini inobatga olgan holda rollarni taqsimlash;
- 3) o'yinning tashkil etilish vaqtini belgilash;
- 4) Hamma ishtirokchilarni birdek o'yinga faol jalb etilishini ta'minlash;
- 5) rol o'yin jarayonidagi ijtimoiy vaziyatni ta'lim oluvchilar uchun ahamiyatini baholash va kutilayotgan natijani taxmin qilish;
- 6) rol o'yinning tashkil etilishi, mazmunning ochib berilishi va kutilgan natijalarni bera olganligi yuzasidan muhokama tashkil etish¹.

¹ Ўша манба, - 46-бет.

Tadqiqotni olib borish davrida dissertant tomonidan asoslangan “Yaxshi va yomon tadbirkorlar”, “Tadbirkorlar va menejmentlar”.

”Tadbirkor va mijoz“, “Tadbirkorlik faoliyatining shaxs tarbiyalanuvchilarni salbiy ijtimoiy ta’sirlardan himoyalash” kabi rolli o’yinlardan samarali foydalanildi.

Rolli o’yinlardan foydalanishda quyidagi tartibda ish ko’rildi:

- 1) O’smirlar ishtirokida rolli o’yin yo’nalishini belgilash va nomlash;
- 2) rolli o’yin maqsadini aniqlash va loyihasini ishlab chiqish;
- 3) ishtirokchilarning soni hamda vazifalarini aniqlab olish;
- 4) o’smirlar o’rtasida rollarni taqsimlash;
- 5) o’yin jarayonini tashkil etish;
- 6) o’yinning borishi va natijasini tahlil qilish.

3.2. Tadbirkorlik shaxs xususiyatlarini aniqlanish bo’yicha olib borilgan tajriba sinov ishlarining natijasi.

Bozor iqtisodiyotidagi murakkab sharoitlar tadbirkordan o’z o’rnini faol izlashi zaruriy hollarda kasbi, turar joyini o’zgartirishini talab qiladi. Tadbirkorlik faoliyati jarayonida insonlar murakkab vaziyatlardan turlicha chiqib ketishi zarur bo’ladi. Kimlardir muammo bilan kelishib, shunga moslashib, muammoni hal qilmay tinchlanishga harakat qiladi. Ba’zilar esa taqdirdan nolib, emotsional jazavaga tushib va so’ngra hech qanday yechimni topmay tinchlanadi. Uchinchi xil kishilar o’z qobig’iga o’ralib olib, muammoni «ko’rmaslikka» harakat qilishadi. To’rtinchi xildagi kishilar yana bir boshqacha yo’l tutishadi.

RIGIDLIK - o’zgaruvchan vaziyatlarga qarab motivatsiya jarayonini korrektsiya qilish talab etilgan paytda ahamiyatga molik bo’ladi. Rigidligi yuqori bo’lgan kishining o’z xulq-atvori strategiyasini o’zgartirishi og’ir kechadi. Oqibatda qabul qilgan qarorlari hamda shakllanayotgan motivlari har doim ham vaziyatga adekvat (mos) kelavermaydi.

Rigidlikni diagnostika qilish metodikasi.

(Metodika G.Ayzenk tomonidan ishlab chiqilgan).

KO'RSATMA: Agar Siz ushbu so'rovnomadagi ta'kidlarga hamda xulkatvorning u yoki bu xususiyatlariga qo'shilsangiz, ta'kidning tartib rakami oldiga 2 ball qo'yasiz, agar umuman qo'shilsa bo'ladi deb hisoblasangiz - 1 ball, agar qo'shilmasangiz - 0 ball qo'ying.

1	odatlarimni o'zgartirishim qiyin.
2	diqqatimning ko'chishi qiyin .
3	barcha yangilikka ehtiyotkorlik bilan munosabat bildiraman.
4	meni fikrimdan qaytarish mushkul.
5	ba'zan o'ylashga arzimaydigan fikrlardan miyamni tozalashim og'ir bo'ladi
6	odamlar bilan kirishib ketishim qiyin.
7	rejalarimdagi arzimmas o'zgarishlar ham kayfiyatimni buzib tashlaydi.
8	o'zimga yarasha o'jarligim bor.
9	tavakkalchilik menga xos emas.
10	o'zim tomonimdan qabul qilingan tartib qoidaning buzilayotganini keskin his qilaman.

Natijalarni qayta ishlash.

Ko'rsatmaga binoan qo'yib chiqilgan ballar yig'indisi hisoblanadi.

HULOSALAR:

0-7 ball - Rigidlik yo'q, bir fikr - tushunchadan boshqasiga ko'chishi oson.

8-14 ball - O'rtacha darajadagi rigidlik mavjud;

15-20 ball – Yuqori darajada namoyon bo'ladigan rigidlik. Bir marta qabul qilingan qaror yoki xatti harakatlar vaziyat taqozo qilgan taqdirda ham o'zgarishga uchrashi og'ir kechadi.

	Rigidlik darajasi	Sinaluvchi (30 nafar)	
		Psixologik korrektsiyaga qadar	Psixologik korrektsiyadan so'ng
1	Yuqori daraja	12	3
2	O'rta daraja	10	15
3	Quyi daraja	8	18



Tadqiqotda ishtirok etgan 30 o'smirdan 12 tasida yuqori darajadagi rigidlik aniqlandi. Bunday o'smirlarda . Bir marta qabul qilingan qaror yoki xatti harakatlar vaziyat taqozo qilgan taqdirda ham o'zgarishga uchrashi og'ir kechadi. Ular o'zlarida shaklangan ma'lum bir fikr muloxani o'zgatirishga shoshilmaydilar Yangi sharoitlarga moslashish odatda qiyin kechadi.

Tadqiqotda ishtirok etgan 10 o'smirda o'rtacha darajadagi rigidlik aniqlandi. Bunday o'smirlarda yangi vaziyatlarga mosdalishi vaziyatli harakterda bo'ladi. Agar uni o'rab turgan ijtimoiy muxitdagi insonlarda yangiliklarga nisbatan intiluvchan bo'lsalar, ularda ham bu holat shakllanishish mumkin. Tadqiqotda ishtirok etgan oxirgi guruh 8 nafar o'smirni tashkil qilib ularda rigidlikning quyi darajasi ya'ni 7 ballgacha bo'lgan ko'rsatkich aniqlandi. Bu o'smirlarda bir fikr - tushunchadan boshqasiga ko'chishi, yangi faoliyat vaziyatlarga moslashishi oson kechishi aniqlandi. O'smirlar bilan o'tkazilgan psixologik korrektsiyadan so'ng rigidlikning yuqori darajasi faqat 3 o'smirda aniqlandi. Shu bilan birga o'rtacha daraja 15 nafar o'smirda qayd qilindi. Tadqiqotda ishtirok etgan 12 o'smirda rigidlik darajasi ko'rsatkichi quyi ko'rsatkichda namoyon bo'ldi.


Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi rivojlanish tobora ko'plab o'smirlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyatga nisbatan qiziqishlarini shakllantishiga sabab bo'lmoqda. O'smirlardagi emotsional xulqiy-iqtisodiy avtonomiyalar rivojlanishi bilan birga ulardagi iqtisodiy avtonomiya ham rivojlanib bormoqda.

Tadqiqotda 30 nafar o'smirlar va 20 nafar katta yoshdagi tadbirkorlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini muvoffaqiyatli yuritish uchun zarur bo'lgan shaxs sifatlarini aniqlash bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi.

Jadval №1. Tadbirkorlik faoliyatini muvoffaqiyatli yuritish uchun zarur bo'lgan shaxs sifatleri.

O'rni	SHaxs sifatlarining tartiblanishi	O'smirlar tanlovi (nq30)		O'rni	Katta yoshdagi tadbirkorlar tanlovi (nq20)		O'rni
		Nafar	Foiz	o'rni	Nafar	foiz	O'rni
1	Kasbiy bilim va malakalarini rivojlantirish	13	14,1	2	11	53,5	4
2	Har bir boshlagan ishni oxirigacha barcha kuch va imkoniyatlarini ishga solib olib borish	17	14	3	11	34,3	4
3	Jamiyat uchun zarurlik.obro'ga ega	12	10	8	14	30,2	6

	bo'lish						
4	Muloqandmandlik Boshqalar bilan tez til topishish	7	9,2	1	18	23,4	2
5	CHet tillarni bilish	10	8,3	4	14	20,9	6
6	tashabbuskorlik” ,” Har bir boshlagan ishni oxirrigacha barcha kuch vaoli borish, bor imkoniyatlarini ishga solib olib borish	9	8	7	13		7
7	Kompyuter savodxonligi	9	7,1	6	12		8
8	Tanishlar.	15	6,9	5	16		4



So'rovnomada katta yoshdagi tadbirkorlar javoblari o'smirlar javoblaridagi farqlar aniqlandi.

Kasbiy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish javobi har to'rtinchi birida ta'kidlangan. Katta yoshdagi tadbirlarning faqat 16, 4 foizida qayd etildi.

Tezlik bilan yuqori martaba erishish zarurligi 11,2%o'smirlarda faqat 5,9 foizdagi katta yoshdagi tadbirkorlarda qayd etildi

Katta yoshdagi tadbirkorlar o'z ish sharoitini qulay bo'lishi ahamiyatli ekanligi ta'kidlaganlar, o'smirlar o'rtasida bu ko'rsatkich past darajada namoyon bo'ldi.

“Jamiyat uchun zarurlik”, “Obro'ga ega bo'lish” ko'rsatkichi o'smirlarda ham katta yoshdagi tadbirkorlarda ahamiyatlilik darajasi bo'yicha birinchi 3 o'rinda bo'lmadi.


Tadbirkorlik faoliyatini muvofaqiyatli yuritish uchun qanday shaxs sifatlariga ega bo'lish zarurligi haqida tasavvurlar quyida berilgan natijalarga ko'rsatdi.

O'smirlar uchun “tashabbuskorlik” ,” Har bir boshlagan ishni oxirigacha barcha kuch va imkoniyatlarini ishga solib olib borish “”CHet tillarni bilish” kabi shaxs sifatlari ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Shu birga o'smirlarda ham katta yoshdagi tadbirkorlarda ham tadbirkorlik faoliyatini muvofaqiyatli olib borishda yaxshi aloqalar, tanishlar zarurligi ahamiyatli ko'rsatkich ekanligi aniqlandi. Ya'ni tadbirkorlik qobiliyatlariga ega bo'lganlarida ham yetarli ijtimoiy aloqalarsiz faoliyatni muvofaqiyatli yuritish mumkin emasligini tushunadilar chet tillarni bilish, komyuter savodxonligi ko'rsatkichlari o'smirlarda yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi ulardagi bo'lajak tadbirkorlik faoliyati chet davlatlar bilan aloqalarning mustaxkamlanishi, axborot manb'alari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish istagi darajasi yuqori ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlagan holda , zamonaviy bozor talab va ehtiyojlarini o'rganish uchun ham zarurligi ular ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi. Bu borada katta yoshdagi tadbirkorlar ko'rsatkichi birmuncha past ko'rsatkichlarda ifodalangan Lekin ushbu yoshdagilarning 42, 3 foizida bu ko'rsatkichyach ahamiyatli darajada yuqoriligi zamonaviy tadbirkorlarning o'z bilim va malakalarini rivojlantirish ustida ishlashi zarurligini anglaganligini bildiradi O'smirning chet tillarni bilishi va komyuter savodxonligi darajasi katta yoshdagi tadbirkorlarga nisbatan yuqoriligi inobatga olgan holda ushbu ko'rsatkicha vaziyatga qarab ahamiyatli variatsiyalanadi

Qadriyatlar orientatsiyasi testi

Tadbirkorlik faoliyatga yo'naltirish borasida o'smirlardagi qadriyatlar tizimini o'rganish.

№	O'smirlar	Qadriyatlar	Katta yoshdagi tadbirkorlar
1	64,9	Mening moddiy ahvolim avvalo mening o'zimdagi harakatlaringa bog'liq	40,5
2	35,1	Menga ko'p narsalar bog'liq emas , ko'p narsalar mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish sharoitlariga bog'liq	59,5
3	49,9	Hayotda nmagadir erishmoqchi bo'lsang ma'lum bir darajada tavakkal qilish zarur	37,3
4	46,1	Hayotda tavakkal qilish umuman kerak emas, balki asta- sekinlik bilan,ishnoqli natijaga erishish zarur	62,7
5	59,3	Boshqalarga nisbatan raxmdil bo'lish zarur. Yaxshi pul topganlar , boshqalarga imkon qadar yordam berishi kerak	46,4
6	42	Tadbirkorlik faoliyatini inson o'zi uchun qiziqarli bo'lgan yo'nalishlarda olib borishi maqsadga muvofiq	32,4
7	67	Tadbirkorlik faoliyatida eng muhimi qanday bo'lmasin yaxshi daromad olish Boshqa masalalar ikkinchi darajali	41,5
8	39,3	Inson o'z daromadlarini xalol mehnat qilish yo'li bilan olishi kerak	82
9	43,8	Boshqalarga qaraganda o'zig xos tarzda ajralib turish,yaxshi yashash.	45,9
10	32,7	Atrofdagilardan ajralib turish xoxlamayman	



O'zni	Qadriyatlar	O'smirlar tanlovi (nq30)		O'rni	Katta yoshdagi tadbirkorlar tanlovi (nq20)		O'zni
		Nafar	foiz	o'rni	Nafar	foiz	O'zni
1	Mening moddiy ahvolim avvalo mening o'zimdagi harakatlarimga bog'liq	31		3	34	53,5	5
2	Menga ko'p narsalar bog'liq emas , ko'p narsalar mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish sharoitlariga bog'liq	17	14	6		34,3	4
3	Hayotda nmagadir erishmoqchi bo'lsang ma'lum bir darajada tavakkal qilish zarur	12	10	7		30,2	3
4	Hayotda tavakkal qilish umuman	7	9,2	6		23,4	8

	kerak emas, balki asta- sekinlik bilan,ishnoqli natijaga erishish zarur						
5	Boshqalarga nisbatan raxmdil bo'lish zarur. Yaxshi pul topganlar , boshqalarga imkon qadar yordam berishi kerak	10	8,3	4		20,9	6
6	Tadbirkorlik faoliyatini inson o'zi uchun qiziqarli bo'lgan yo'nalishlarda olib borishi maqsadga muvofiq	9	8	1			1
7	Tadbirkorlik faoliyatida eng muhimi qanday bo'lmasin yaxshi daromad olish Boshqa masalalar ikkinchi darajali	9	7,1	2			3

Qadriyatlar tizimini o'rganish borasida bu savolnoma o'smirlar va katta yoshdagilar o'rtasidagi tafovutlar o'rganilganda ular o'rtasidagi o'xshashliklar borligi ham aniqlandi.

Qiziqarli faoliyat yo'nalishi ikkala guruhdagilar uchun ahamiyatli ekanligi namoyoni bo'ldi Moddiy ahvolni ko'proq tanlov o'smirlarda berilgan Ularning hayotidagi xal qilishi lozim bo'lgan masalalarni ko'pchiligi aynan moddiy boyliklar ilan bog'liq bo'lganligi bilan tushuntiriladi (uyjoy, oliy o'quv yurtidagi kontarkt to'lovlar, mashina.va xokozolar.)

Boshqalarga moddiy yordam ko'rsatish oktanti bo'yicha katta yoshdagi tadbirkorlar ko'rsatkichi o'smirlar ko'rsatkichidan faqat 7 foizga kattaligi o'smirlar ongida insonparvarlik qadriyatlari shakllanayotganlini anglatadi.

Katta yoshdagilar hayotda tadbirkorlik sohasida muvoffaqiyatga erishgan boshqalarga yordam berishlar kerak deb hisoblasalar , o'smrlar ko'proq hayotda hamma o'zi harakat qilishi kerak deb hisoblaydilar. Katta yoshdagi tadbirkorlarning ko'satkichlari 57,7 foizi ham inson o'zi uchun o'zi harakat qilishi kerak debhisoblaydilar. Keltirilgan natijalar o'smirlarda ham katta yoshdagi tadbirkorlarda

ham individualistik va paternalistik yo'nalganlik mavjud ekanligi aniqladi. O'smirlar va katta yoshdagi tadbirkorlik guruhlarida yana bir o'xshashlik tomoni shundaki, ikkala guruhda ham Tadbirkorlik faoliyatida eng muhimi qanday bo'lmasin yaxshi daromad olish ko'rsatkichi past darajada ekanligida. Lekin shu bilan birga (32foiz, ya'ni har 3 o'smirdan biri) foiz o'smir bunday deb hisoblamasligi oila va ta'lim muassalari diqqatini jalb etishi zarurligini anglatadi

BOB BO'YICHA HULOSALAR

O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish maqsadida o'tkaziladigan psixologik korrektsiya tadbirlari asosini psixologik diagnostika natijasi va tarbiyaviy yondoshishning o'zaro aloqadorligi, tashkil etadi. Tadbirkor shaxsining mehnat jamoalarini uyushishi, jipslashishi va rivojlanishining ruhiy-psixologik jarayonlari boskichlarini hisobga olishi kerak. Aynan shu bis o'smirlar jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni o'rganib borish, tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarda begonalashuv holati aniqlangan o'smirlarning ijtimoiy faolligni oshirish borasida korrektsion tadbirlar amaliyotchi psixolog faoliyatining maxim vazifalaridan biri sanaladi

O'tkazilgan psixologik diagnostika natijasida tadqiqotda ishtirok etgan o'smirlarda rigidlik darajalari korrektsion tadbirlarning olib borilishi natijasida ahamiyatli pasaydi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun zaruriy shaxs xususiyatlarini aniqlashda o'smirlar va katta yoshdagi tadbirkorlar javoblarida farqlar borligi aniqlandi. Ayni vaqtda qadriyatlar orientatsisni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomada katta yoshdagi tadbirkorlar va o'smirlar javoblarida umumiy ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi.

Hulosa

O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish vazifalari bevosita kasbiy tayyorgarlik jarayonida amalga oshirilib aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Bu jarayondagi muhim omillardan biri kasb - hunar kollejlarning kichik mutaxassislar tayyorlash tizimidagi amaliyotchi psixologlar faoliyatini mavjud tashkiliy-pedagogik, o'quv-metodik va moddiy-texnik sharoitlar bilan uzviyligi asosida amalga oshirilishi tashkil etadi.

Tadbirkorlik faoliyati natijasi noaniq bo'lgan sharoitlarda ham, muntazam tarzda tezkor qarorlar qabul qilish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan, ishda tashabbuskorlik, yangilikka intilish, tavakkal-chilik, mustaqil fikrlash kabi shaxs xususiyatlari asosida shakllanadi. Ya'ni tadbirkorlik bu iqqisodiy faoliyatning shunday turi-ki u bilan shug'ullanish uchun, shaxs ongida alohida olingan psixologik xususiyatlar mavjud bo'lishi zarur. Tadbirkorlik qobiyaliyatiga ega bo'lgan o'smirlar o'z hatti harakatlarida do'stona harakaterda, erkin va faol bo'ladilar. Turli toifadagi insonlar bilan oson muloqotga kirishadilar. Ularga turli vaziyatlarda tashkilotchi, rahbar bo'lish yoqadi, shu bois ularda mas'uliyat hissi yaxshi shakllangan. Aynan shu narsani ta'kidlash joiz-ki ular hato qilishlaridan aslo qo'rqmaydilar. Agan o'smir tadbirkorlik oilasida tarbiyalanayotgan bo'lsa, bu shaxs xususiyatlarining shakllanishi mukammalroq kechadi. Ko'pchilik o'smirlar shaxsida norasolik kompleksi shakllanishi natijasida ma'lum bir tadbirkorlik qobiyalatlari tormozlanadi. Oilada o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda avvalo, o'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari ni inobatga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'smir oilada ota-onalari qatorida turib mehnat qilishi va qilayotgan ishining natijasidan quvonishi, g'ururlanish hissi evaziga o'z «men»i tug'risidagi tasavvurlari ijobiy, o'z-o'ziga bahosi ob'ektiv va adolatli bo'lishi ta'minlanadi, o'zining nimalarga qodir ekanligini aniq tasavvur qila oladi.

Amaliy tavsiyalar

- O'smirlarda tadbirkorlik faoliyati qobiliyatlarini hamda shaxs sifatlarining psixologik diagnostikasini muntazam tarzda amalga oshirish
- O'smirlar uning imkoniyatlariga yaqinlashishga ijtimoiy talablarning qo'yilishi. Me'yordan ortiq talab o'smirlarning, o'ziga nisbatan ishonchsizlik hissinin ortishi, olib keladi
- O'smirlarning tadbirkorlik faoliyatiga intilishi va qiziqishlarini pedagoglar ota onalar tomondan qo'llab quvvatlashga erishish
- Kasb-hunar kollejlarning kasbiy ta'lim o'qituvchilarining o'smirlarni ma'lum bir kasbiy faoliyati olib boruvchi tadbirkorlar bilan davra suhbatlari olib borilishi, ekskursiyalar uyushtirilishi
- Etnopsixologik xususiyatlarmizdan biri bo'lgan "1 Ustoz- shogird" an'analarga tadbirkorlarni keng jalb etish
- O'smirlar bilan olib boriladigan ta'lim -tarbiya jarayonida bozor qonun-qoidalarini tushunish, tadbirkor bo'lishga intilishi va g'ururlanish hisslarini tarkib topirish maqsadida psixologik targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.
- II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari.
- III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.
- IV. Asosiy adabiyotlar.
- V. Qoshimcha adabiyotlar
- VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar
- VII. Internet saytlari

Normativ huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Toshkent 1992 yil
2. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 18-son, 201-modda; 2013 y., 18-s
3. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent 2012y
4. O'zbekiston respublikasi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonun Toshkent 2012

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari.

1. Psixologik xizmat to'g'risidagi Nizom Toshkent 2010 y.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" Toshkent 2007 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

1. I.A. Karimov Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. I.A.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida".
3. I.A.Karimov "Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorli bilan foydalanish-bosh yo'limiz"

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. K.A.Abulxanova - Slavsskaya "Lichnost-kak predmet izucheniya psixologii M. 2001g.
2. SH. Barotov Psixologik xizmat
3. SH.Zulfiqorov "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy ta'lim trabiyaning asoiy maqsadi va yo'nalishlari" Samarqand 2013.
4. S.Ibragimova. "Oila mustahkamligi – jamiyat rivoji" Xalq ta'limi 2007 №2
5. V.M.Karimova Ijtimoiy psixologiyani amaliy tadbikiy sohalari Toshkent 2010 y.
6. V M.Karimova Ijtimoiy psixologiya Toshkent 2005y.
7. Leshenko B.A. va boshqalar Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish asoslari Samarqand 2006 y.
8. Mironova Taisiya Yurevna Sotsialno-psixologicheskie osobennosti ekonomicheskoy sotsializatsii podrostkov i yunochey dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata psixologicheskix nauk. Kursk 2013
9. T.K.Mirzaaxmedov Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, mazmuni, turlari va shakllari Navoiy 2007y.
10. Z.Nishonova Psixologik xizmat. Toshkent 2005
11. Z.Nishonova Sh. Do'stmuhamedova Sh. Tulyaganova Pedagogik psixologiya Toshkent 2011.
12. M.Ortiqova "O'smirlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik shart sharoitlari. Pedagogik ta'lim 2007 №2.
13. Pancheko Psixologiya bez rabotnika Sotsialno'y portret sovremennogo predprinimatel'ya.
14. Pugach I. L. "Kichik va oilaviy biznesni tashkil etish va rivojlantirish" tadbirkorlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent 2002.
15. S.Raximov, N.Parpieva. Miliy istiqlol g'oyasi.
16. N.Sh.Umarova Shaxsning pulga munosabatlari va ustanovakalarini shakllantiruvchi omillar TDIU "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, noyabr, 2011.

17. A.K.Kolesova “Sotsialno’y portret sovremennogo predprinimatel’ya” Sankt – Peterburg 2004 g.
18. SH. Xonqulov, A.Mamasiddiqov. Tadbirkor – yetakchi Farg’ona 2006.
19. Ergashxodjaeva Sh.J., “Kichik biznes va tadbirkorlik” o’quv fani bo’yicha o’qitish texnologiyasi. Toshkent 2009 y.
20. R.S.Xo’jaev va boshqalar “Kichik biznesni boshqarish fanidan o’quv qo’llanma” Toshkent 2006.

Internet saytlari

el.tfi.uzG’pdfG’migatt_uzk.pdf

<http://G’G’navoiypress.uzG’newsG’socG’1398-oila-musta1202kamligi-zhamiyat-rivozhi.html>

uzG’loadG’0-0-0-2804-20

<http://G’G’fikir.uzG’postsG’13365.html>

http://G’G’referat.arxiv.uzG’filesG’47882_tadbirkorlik-psihologiyasi.html

<http://G’G’kamolot.uzG’hududlarG’samarqandG’2221-esh-tadbirkor-el-yurt-tayanchi.html>

<http://G’G’www.odnoklassniki.ruG’munosabatl>

ILOVA

O'smirlarda tadbirkorlik faoliyati zaruriy shaxs tuzilmalarini shakllantirish bo'yicha trening mashqlari.

Tadbirkorlikni harakatlarni tahlil etish mashqi.

Daftarni olib mantiqiy va tanqidiy fikr yuritib shoshmasdan qayd eting.

1. Hozirgi holatingizda Siz nimani baholaysiz, sanab chiqing. (Misol, "Menga bo'sh vaqt ko'p", "Menga yaxshi qiyinish uchun pul bor"...). Sizning kallangizga nima kelsa yozing. 10 ta fikr bo'lganda to'xtat.

2. Hozirgi holatingizda (paytda) Sizni nima azob beradi, xavfsirashingizga sabab bo'ladi, Sizga yoqmaydi yozing.

3. Endi oxirgi uch yildagi hayotingizni eslang. Siz necha yoshda edingiz? Nima bilan shug'ullandingiz? Bo'sh vaqtni qanday o'tkazdingiz? Sizni nima quvontirdi? Nima xafa etdi? Kim bilan Siz ko'proq vaqtingizni o'tkazdingiz?

Birinchi yozganlaringizni qayta o'qing va bu vaqtda Sizning hayotingizda ro'y bergan qadriyatli narsalarni ko'ring.

Ikkinchi yozganlaringizni yana o'qing va uch yilda Sizda nima yoqmaydigan ishlar bo'ldi tagiga chizing.

Agar bu uch yilda Sizning hayotingizdan kerakli narsa zoe ketgan bo'lsa, uni yozing.

Agar bu yillarda Sizni avvallari bezovta qiladigan narsa yo'qolgan bo'lsa, uni ham yozing.

Siz o'zingizning hozirgi kuningiz bilan avvalshilarni solishtirdingiz. Alohida varaqga shu uch yildagi yutuqlarga eltuvchi faktorlarni ro'yxatini (hayotingizni yaxshilovchi) va yutqazishlarga eltuvchi (hayotingizni yomonlovchi) faktorlarni (sabablarni) ro'yxatini yozing.

Agarda Sizdagi ro'yxatda birontasida bu joy bo'lsa (Siz javob yozmagan bo'lsangiz) Siz o'zingiz bilan chin yurakdan muloqotda emassiz.

4. Ro'yxatning har bir punkti (navbati) bo'yicha aniqlang, bu o'zgarishlarning paydo bo'lishiga Sizning qanday hatti-harakatlaringiz sabab bo'lgan?

Bu mashq o'zini jazolash yoki o'z-o'zini yoqtirish uchun sabab emas. Uch yil davomida har bir kishida shunday harakatlar topiladiki, ular hayotni ham yaxshilash, ham yomonlashga olib kelgan. Bunday hatti-harakatlaringizni ko'proq payqashga harakat eting.

Agarda Siz o'zingiz haqidagi uch yillik harakatlar, ishlar, gaplarni tahlil qilishda qiyinchilikka uchrasangiz, fikran bu bo'lib o'tgan ishlarni boshqa kishi nomidan tahlil eting. Siz o'zingizning psixologik avtobiografiyangizni yozdingiz. Bu narsa Sizning o'zligingizni anglash, tushunishga yordam beradi. Siz mantiqan o'zingizga ob'ektiv va real baholash imkoniga ega bo'lasiz.

5. Tasavvur eting. Sizning hozirgi holatingiz qanday yomon bo'lar edi, agarda Siz o'zingizni boshqacha tutgan bo'lganingizda (mas'uliyatsiz, ahmoqona, yomon). Agar Siz boshqacha o'zingizni tutganda qimmatga ega bo'lgan nimaga erisha olmas edingiz. Siz o'zingizga yana qanday qo'shimcha qiyinchiliklarni vujudga keltirgan bo'lar edingiz? Qanaqangi yo'qotishlardan Siz o'zingizni saqladingiz?

6. Bugungi hayotingiz yanada farovon, go'zal bo'lishi uchun Siz o'tgan vaqtda nimalar qilishingiz mumkin edi?

Siz bu mashqni mustaqil davom etishingiz mumkin. Vaqt intervalini davom etishingiz mumkin. Vaqt intervalini o'zgartirishingiz, tadqiqot, analiz ob'ektini (o'qish, yaqinlar bilan munosabatlar, moddiy boylikka ega bo'lish, lavozimga intilish va boshqalar) almashtirishingiz mumkin.

Bunday autotahlil (o'z-o'zini tahlil) Sizga to'g'ri diagnostik hulosaga kelishga, o'z harakat, so'z va faoliyatingizni yangicha baholashga, hatolarni kamaytirishga, natijada, har bir ishda samaradorlikka erishishga yordam beradi. Sizda rahbarlik, tashkilotchilik va tadbirkorlik uchun eng kerakli fazilat – o'z-o'zini tahlil etish, o'ziga to'g'ri baho berish, o'z-o'zini raqobatbardosh etib tarbiyalash uchun, mustaqil fikr egasi bo'lishingiz uchun bunday mashqlar yordam beradi.

M A S H Q.

Ro'yxatni o'qib vaqtingizni oladigan beshta asosiysini ajrating.

Maqsadni noaniq qo'yilishi;
Ishda na'munalarning yo'qligi;
Birdan ko'p narsani qilishni boshlash;
Vazifalarni bajarish va yo'llarini umuman tasavvur eta olmaslik;
Ish kunini noto'g'ri taqsimlanishi;
SHaxsiy befarqlik;
Ko'p o'qish;
SHaxsiy axborotni noto'g'ri olish tizimi;
Adreslar, yozuvlar, telefon raqamlarini izlash;
Ishda kooperatsiya va taqsimlash kamchiliklari;
Ishdan qoldiradigan telefon qo'ng'iroqlari;
Rejalashtirilmagan qabullar;
“yo'q” deya olmaslik;
Axborotni kech va kam kelishi;
O'z-o'zini tartibga solishning yo'qligi;
Ishni oxiriga yetkazishga malakaning yo'qligi;
Diqqatning boshqa narsaga chalg'ishi;
Suhbatlar va tahlillarga kam tayyorgarlik ko'rish;
Davomli majlislar;
Teskari aloqaning aniq emasligi;
Mayda mavzularga diqqatni qaratish;
Ko'p gapirishga moyllik;
Ishchi yozuvlarning ko'pligi;
“keyinga qoldirish” odati;
Hamma dallilarni bilishga talab;
Kutib turishning bardavomligi;
SHoshma-shosharlik;
Juda kam mas'uliyatni boshqa kishiga ishonib topshirish;
Ishonib topshirgan boshqaruv ishini kam nazorat etish.

TADBIRKOR VAQTINING TAHLILI MODELI.

Siz qanday ishlarga vaqtingizni bekorga sarflashingizni ko'rib chiqing. Tadbirkorlikda o'z vaqtini to'g'ri boshqarishda besh xil muammo paydo bo'lishi mumkin:

Ishni ertaga qoldirish.

Yordamchilarga boshqaruvni bir qismini ishonib topshirish malakasi.

Kantselyariya ishlarini bajara olmaslik.

Kerak bo'lmagan majlislar o'tkazish.

Eng avval boshlaydigan ishlarni tartibga sola olmaslik.

Siz vaqtingizni rejalashtirishga harakat eting. Qaerda, qanday bunga o'rganishni o'ylang. Har qanday ish uchun vaqt qancha talab etiladi va qancha bor Siz aniq bilishingiz, tasavvur etishingiz lozim.

Siz miyangiz qachon yaxshi ishlashni bilishingiz lozim. Siz tizimli ishlashga o'rganing.

VAQTNI REJALASHTIRISH VA NAZORAT ETISH MASHQI.

TADBIRKOR VAQTINING TAHLILI MODELI.

Yaqin besh kun uchun bajaradigan ishlar rejasi va talab etiladigan vaqtni rejasini tuzing. Asosiy vazifalar ro'yxatini aniqlang, ularga to'siqlarni ham belgilang. Bu kunlar o'tgandan keyin tahlil eting

TINCHLANISH (RELAKSATSIYA) SOG'LIQ VA YUTUQLAR ASOSI.

VAQTNI REJALASHTIRISH VA NAZORAT ETISH MASHQI.

TADBIRKOR VAQTINING TAHLILI MODELI

Tinchlanish mashqi.

Diqqatingizni o'ng qo'lning bilagiga qarating (Agar chapag'ay bo'lsangiz – chap qo'lga).

So'zlarni ishonch bilan (nafas olish ritmi bilan bog'lab) ichingizga gapiring.

Bilag isayapti,

Barmoqlar yoqimli isayapti.
Kaft ko'proq isib kelayapti.
Yumshoq issiqlik bilagni to'ldirmoqda,
Barmoqlar butunlay isib ketayapti,
Barmoqlar orasida issiqlik chiqmoqda.
Uchigacha to'ldirilmoqda.
Hatto tirmoqlar isimoqda.
Qo'lda ajoyib issiqlik ko'paymoqda,
Kaft yana issiqroq, yanada haroratli.
Issiqlik ko'paymoqda.
Yoqimli qitiqlaydi...
Elka butunlay isigan,
Tirsak harorati ko'tarilgan.
Butun qo'l issiq, harorati yuqori.
Elkadan to barmoqlargacha...
Ikkala qo'llar isigan,
Ikkala qo'llar yoqimli issiqlik bilan – kiftlarga, umrovgacha, ko'raklarga...
Oyoqlar, butun badan, ko'krak, qorin, bel, chanoq, mening quyosh chigalim issiqlik
chiqarmoqda.
Mening vujudim issiqlik chiqarmoqda.
Men quyoshga aylanmoqdaman,
Men quyoshman.
Men tinchman. Butunlay tinchman.
Hamma yoq orom. Men uning bir bo'lagi.
Tinchman, oromman.
Bu mashqni har kuni takrorlang.
Men tinchman.
O'zimizga ishonaman.
Kayfiyatim yaxshi.
Men dunyoda yagonaman.

Dunyoda o'z mazmun, mohiyatim bor.

Maqsadim aniq.

Men maqsad bo'yicha ortiqcha qadam qo'yishdan ko'rqmayman.

Maqsadimga albatta erishaman.

PU BO'YICHA 3-CHI AUTOGEN MASHQ.

Men tinchman, o'zimizga ishonaman.

Maqsadim aniq. Uni har tomonlama o'ylaganman. Uni bajarishda muayyan tartibga rioya etaman. Tartib vaqtni tejaydi. Reja bilan maqsadga erishaman. Men buni uddalayman.

PU BO'YICHA 4-CHI AUTOGEN MASHQ.

Kayfiyatim yaxshi. Tinchman.

Maqsadim aniq.

Maqsadga yetishga to'siqlar yo'q.

Men uni har tomonlama tahlil etdim. O'zimga, vaqtga, sharoitga oilamga ishonaman. Butun vujudim bilan maqsadga erishishga kirishaman.

PU BO'YICHA 5-CHI AUTOGEN MASHQ.

Men o'zimni yaxshi etayapman.

O'zimga ishonchim tobora ortayapti.

Menda kuch, g'ayrat, shavq, zavq ko'paymoqda. Tabiat, jamiyat, do'stlarim menga qarab turganday. Men chin yurakdan ular bilan muomalada, ularsiz hayot yo'q, ular bilan maqsadga erishaman.

PU BO'YICHA 6-CHI AUTOGEN MASHQ.

Men tinchman, o'zimni yaxshi his etayapman. Kuchga to'lganman. Kayfiyat yaxshi. Maqsad bo'yicha ishni boshladim, yaxshi ketayapti. Natijalar yaxshi. Azm-shavq, chin yurakdan ishni yaxshilash yo'llarini qidirib topaman. Diqqatimni qadriyatlarga tayanib, samaradorlikka qarataman. Insonlar guruhi kuchiga ishonaman.

PU BO'YICHA 7-CHI AUTOGEN MASHQ.

Ishlar yaxshi. Men tinch, kayfiyat joyida. Ayrim hatolar ishda mavjud. Ulardan to'g'ri hulosani chiqaraman. Ular tugatiladi. Ishga tafakkur bilan ijodiy

yondoshaman. Vaqt va puldan to'g'ri foydalanaman. Men hamma vaqt ijobiy ruhiy kayfiyatda. Insonlarga, ularning odatlari, intilishlariga tayanaman.